

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

**ENERGETIK QURILMALARNING
TERMODINAMIK SIKLLARI**

MA'Ruzalar matni

Toshkent - 2014

YDK 621.1016

«Energetik qurilmalarning termodinamik sikllari» fani bo'yicha ma'ruzalar matni / M.M.Alimova, M.A.Koroli - Toshkent, ToshDTU, 2014. 58 b.

Qisqacha ma'ruzalar matni quyidagi bo'limlar bo'yicha nazariy tushunchalarni o'z ichiga oladi: «Sikllar», «Ichki o'nuv dvigatellari», «Bug' turbina qurilmalari», «Gaz turbina qurilmalari», «Kompressorlar», «Sovitish qurilmalari», «Issiqlik nasoslari». O'quv qo'llanma issiqlik energetika yo'nalishida ta'lim oluvchi talabalarga «Energetik qurilmalarning termodinamik sikllari» fanni o'qishda qo'llaniladi.

«Issiqlik energetikasi» kafedrasi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga binoan chop etildi.

Taqrizchilar:

S.K.Ismatxo'jayev

A.Badalov

O'zR FA Energetika va avtomatika ITI
laboratoriya mudiri, t.f.n.

ToshDTU EMKT kafedrasi dotsenti, t.f.n.

1-MAVZU

AYLANMA TERMODINAMIK JARAYONLARNING ASOSIY XOSSALARI (ISSIQLIK MASHINALARINING SIKLLARI)

Mavzu quyidagi ma’ruzalarini o‘z ichiga oladi:

1. Termodinamik sikllarning umumiylari tavsiflari va klassifikatsiyasi.
2. Oddiy termodinamik sikl (Karno sikli) va uning xossalari.
3. Aylanma jarayonlarning umumiylari xossalari.

Kalit so`zlar: *issiqlik dvigatillari, sovitgich qurilmalari, to`g`ri va teskari sikllar, foydali ish koeffitsienti, Karnol sikli, ish bajarish qobiliyati (eksergiya)*.

1.1. Termodinamik sikllarning umumiylari tavsiflari va klassifikatsiyasi

Issiqlik mashinalari ishlashiga qarab issiqlik dvigatellari va sovitgich qurilmalariga bo‘linadi. **Issiqlik dvigatellari** uzlusiz ishlaydigan qurilmalar bo‘lib, ularda issiqlik ishga aylanadi. **Sovitgich mashinalari** uzlusiz ishlaydigan mashina bo‘lib, u issiqligi kichik jismdan, issiqligi katta bo‘lgan jismga issiqliknini o‘tkazib berishga asoslangandir. Bunday mashinalarni uzlusizligini ishchi jism aylanma termodinamik jarayonni amalga oshirish bilan erishiladi.


Sikl ikki turga bo‘linadi: to‘g‘ri va teskari.

Issiqlik mashinalari ishlaydigan to‘g‘ri sikllarning foydali effekti bo‘lib, issiqliknini ishga aylanishi hisoblanadi. Ikkinci qonunga asosan bunday holatlarda kopensatsion jarayon bo‘lib, o‘z-o‘zidan issiqliknini yuqori manbadan pastki manbaga o‘tishi, ya’ni bunday holatda yuqori manbadan tashqari (isitgichlar) yana pastki manbaga ega bo‘lishi kerak bo‘ladi.

1.1-rasmida issiqlik dvigatelini va yo‘g‘ri termodinamik siklini oddiy chizmasi keltirilgan.

Chizmalardan shu narsa ko‘rinib turibdiki, kerakli musbat ishni olish uchun **1a2** jarayonidagi kengayish ishi, **2b1** jarayonidagi torayish shundan katta bo‘lishi kerak, ya’ni ishchi jism soat strelkasi bo‘ylab aylanma jarayonni amalga oshirishi shart. Bunda qisman sarflangan issiqlik ishga aylanadi.

Foydali effekti issiqliknini ishga aylantirishga sarflangan to‘g‘ri sikllarni *issiqlik mexanik sikllari* deyiladi. Ularning effektivligi foydali ishga aylanishida sarflangan issiqliknini, sarflangan issiqlikka bo‘lgan nisbati bilan o‘lchanadigan foydali ish koeffitsenti bilan baholanadi.




1.1– rasm. Issiqlik dvigatelining chizmasi:

a – to‘g‘ri termodinamik sikl; b va d – P-V va T-S diagrammasi

$$\eta_t = \frac{q_0}{q_1} = \frac{q_1 - q_2}{q_1} = 1 - \frac{q_2}{q_1}; \quad (1)$$

Har doim $\eta_t < 1$ bo‘ladi, buning sababi hech qachon q_2 nolga teng bo‘lmaydi. Yana bir narsani ta’kidlab o‘tsa bo‘ladi.

Teplofiksion sikllarda, ya’ni faqat ish oluvchi emas, balki issiqlik bilan ta’minalash sikllarida, pastki issiqlik manbai sifatida turbinada ishlatalib bo‘lingan ishchi jismni qabul qiluvchi (sovitgich) hisoblanadi.



1.2– rasm. Sovitgich qurilmasining chizmasi

a – teskari termodinamik sikl; b va d – p-V va T-s diagrammasi.

Teskari sikl bilan ishlaydigan sovitgich mashinalaridagi foydali effekt bo‘lib, harorati kichik jismdan harorati katta jismga issiqlik berilishidir. Bunda jism ichidan energiya sarflanadi.

Teskari termodinamik sikl va sovitgich qurilmasining sikli 1.2-rasmda ko'rsatilgan. **2b1** jarayonda ishchi jism sovitgichdan **2b1S₀S₁2** yuzaga teng bo'lgan q_2 issiqlikni oladi, ichdan **1a2b1** yuzaga teng bo'lgan l_0 ish sarflangan uchun, **1a2** jarayonda **1a2S₂S₁1** yuzaga teng bo'lgan q_1 issiqlik atrof muhitga beriladi, lekin

$$l_0 = q_1 - q_2 < 0 \quad (2)$$

Ushbu siklning effektivligi q_2 issiqlikni, sarflangan ishga bo'lgan nisbati bilan xarakterlanadi, buni *sovitgich koeffitsenti* deyiladi va ε bilan belgilanadi.

$$\varepsilon = \frac{q_2}{l_0} = \frac{q_1}{q_1 - q_2} = \frac{1}{\frac{q_1}{q_2} - 1}; \quad (3)$$

Teskari sikl katta haroratlar oralig'ida sodir bo'lishi mumkin, chunki issiqlik atrof muhitdan iste'molchiga o'tishi (masalan, isitilish sistemalarida) atrof muhit haroratidan yuqori haroratida yuzaga keladi. Teskari sikl bo'yicha ishlaydigan sikllarni issiqlik nasoslari deyiladi. Teskari sikllar soat strelkasiga qarama-qarshi yo'nalishda ishlaydi.

η_t va ε koeffitsentlari termodinaik sikllarning effektivligini xarakterlaydi va u termodinamik jarayonlarni xarakteriga bog'liqdir. Ko'runib turibdiki, turli shartlarda effektivlik qaytar jarayonlardan tashkil topgan sikllarda ko'rildi. Bu degani ishchi jismga issiqlikni keltirilishi va olib ketilishi shunday haroratga ega bo'lishi kerekki, ishqalanishsiz betartib sodir bo'ladigan qaytmas jarayonlardan tashkil topgan issiqlik manbaini haroratiga mos keluvchi harorat bo'lishi shartdir.

Qaytar jarayonlardan tashkil topgan sikllarga *qaytar sikllar* deyiladi.

Oddiy sikl bu eng kam issiqlik manbai orqali yuzaga keladigan sikldir.


1.2. Oddiy termodinamik sikl (Karno sikli) va uning xossalari

1.2.1. To'g'ri Karno sikli

Temodinamikaning ikkinchi qonuniga binoan siklni bajarilishi uchun kamida ikkita manba kerak bo'ladi: yuqori T_1 harorati o'zgarmas, pastki T_2 harorati o'zgarmas bo'lgan manbalar ($T_2 < T_1$).

Bunda qaytar holatni saqlagan holda issiqlikni keltirish va olib ketish izotermalar T_1 va T_2 orqali sikl yuzaga keltiriladi. Lekin ikkita izoterma orqali siklni yuzaga kelishi mumkin emas. Boshqa manba bo'limgani uchun T_1 dan T_2 gacha adiabata 2-3 va 4-1 orqali yuzaga kelishi mumkin (1.3-rasm). Demak,

oddiy qaytar sikl ikkita izoterma 1-2 va 3-4 dan va ikkita adiabatadan tashkil topadi. Bunday siklni (1832 yil) S.Karno yuzaga keltirdi, shuning uchun bu sikl *Karno sikli* deyiladi.



1.3– rasm. Karno sikli:
a – p-V diagrammasi; b – T-s diagrammasi

1.3-rasmdan ko‘rinib turibdiki, keltirilgan issiqlik – q_1

$$q_1 = 1_2 S_1 S_2 \text{yuza} = T_1 (S_2 - S_1); \quad (4)$$

olib ketilgani – q_2

$$q_2 = 3_4 S_1 S_2 \text{yuza} = T_2 (S_2 - S_1); \quad (5)$$

U holda, Karno siklining termik FIK quyidagiga teng:

$$\eta_t^{karno} = 1 - \frac{q_2}{q_1} = 1 - \frac{T_2 (S_2 - S_1)}{T_1 (S_2 - S_1)} = 1 - \frac{T_2}{T_1}; \quad (6)$$

Demak, Karno siklining FIKi issiq va sovuq manbalarning absolyut haroratlariiga bog‘liq bo‘lib, ishchi jism qanday gazligiga bog‘liq emas. Bular isbotlangan bo‘lib, *Karno teoremasi* deb ataladi, ya’ni

$$\eta_t^{Karno} = f (T_1; T_2); \quad (7)$$


1.2.2. Umumlashgan (regenerativ) Karno sikli

Berilgan T_1 va T_2 haroratlar oralig'ida katta FIKga faqat Karno sikli emas, balki ikkita AB va CD izotermaga ega bo'lgan sikl ham ega bo'ladi. Buning uchun BC jarayonini vaqtida ishchi jismdan pastki manbaga issiqlik berilmaydi, balki qo'shimcha issiqlik almashinushi apparati (regenerator) yordamida ishchi jismga uni qizitish (DA) beriladi.


BC va DA egri chiziqlar ekvidistant chiziqlar bo'lgani uchun $CBB'C'yuza=DAA'D'yuza$ bo'ladi, ya'ni bu jarayonlarda issiqlik miqdori bir xil, faqat ishorasi har xil bo'ladi. Demak, $ABCD$ sikldagi $AB21A$ Karno siklidagidek bo'ladi. Ikkala sikllarning issiqliklari q_1 va q_2 teng bo'lgani uchun, ularning FIKlari ham teng bo'ladi.

$$\eta_t^{\text{umum}} = \eta_t^{\text{Karno}} = 1 - \frac{T_2}{T_1}; \quad (8)$$

Regeneratsiya sikli sikllarning effektivligini oshirish uchun zamonaviy issiqlik kuch va sovitgich qurilmalarida qo'llaniladi.



1.4- rasm. Umumlashgan regenerativ Karno sikli



1.5- rasm. Teskari Karno sikli

1.2.3. Teskari Karno sikli

Soat strelkasiga qarama-qarshi sodir bo'ladigan ushbu siklda, ishchi jism avval adiabata 3-4 orqali siqiladi, so'ngra tashqi ish l_1 ni sarflanishi natijasida, izoterra 4-1 yordamida yuqori manbaga, ya'ni issiq manbaga q_1 issiqlikni berdi. So'ngra 1-2 adiabata yordamida ishchi jismni kengayishi l_2 ishni berilishi va haroratni T_1 dan T_2 gacha kamayishi natijasida davom etadi.

So‘ngra izoterma 2-3 bo‘yicha kengayish sovuq manbadan issiqlik q_2 ni olishi bilan davom etadi.

Teskari siklni bajarilishi hisobiga issiqlik sovuq manbadan issiq manbaga beriladi, bunda qo‘srimcha ish – l_0 sarflanishi bilan yuzaga keladi, bu ish $l_0 = l_1 - l_2$ bo‘ladi.

Teskari Karko sikli sovitish koeffitsenti quyidagicha yoziladi:

$$\varepsilon^{Karko} = \frac{1}{\frac{T_1}{T_2} - 1}; \quad (9)$$

Ushbu ifodadan ko‘rinib turibdiki, sovitgich qurilmalarni effektivligini oshirish tashqi muhit harorati T_1 ni kamaytirish, T_2 haroratni oshirish, ya’ni $T_1 - T_2$ haroratlar farqini oshirish mumkin.

1.3. Aylanma jarayonlarni umumiylar. Ishlash qobiliyati (eksergiya)

Qaytmas jarayonlar sodir bo‘layotgan sistemalarda entropiyani ortishi sistemalarning ishlash qobiliyatini yo‘qotilishiga olib keladi.

Ishlash qobiliyati deb, shunday kattalikka aytildiği, bu yuqori issiq manbadan q_1 issiqlikni olinishi hisobiga sovuq manba, kichik T_2 haroratga ega bo‘lgan atrof muhit bo‘lgani natijasida maksimal ish bajarilishiga aytildi.

Ma’lumki, maksimal ish q_1 issiqlik hisobiga berilgan haroratlar oralig‘ida teskari Karko sikli hisobiga olinishi mumkin.

$$\eta_t = \frac{l_0}{q_1} \quad \text{dan} \quad l_0 = q_1 * \eta_t^{karko} = q_1 \left(1 - \frac{T_2}{T_1} \right); \quad (10)$$

Ko‘rinib turibdiki, ishlash qobiliyati T_1 haroratni katta, T_2 haroratni kichik bo‘lishi hisobiga katta bo‘ladi.

Agar ishchi jismga q_1 issiqlik haroratlar farqiga ega bo‘lganda keltirilsa, ya’ni ishchi jismning harorati T_1' , yuqori issiq manba haroratidan kichik bo‘lsa, u holda qaytmas Karko sikli uchun (l_0'), l_0 ishdan kichik bo‘ladi:

$$l_0' = q_1 \left(1 - \frac{T_2}{T_1'} \right); \quad (11)$$

Demak, ishlash qobiliyati quyidagi kattalikka kichik bo‘ladi:

$$\Delta l = l_0 - l_1 = q_1 \left(1 - \frac{T_2}{T_1} \right) - q_2 \left(1 - \frac{T_2}{T_1} \right) = T_2 q_1 \left(\frac{1}{T_1} - \frac{1}{T_2} \right); \quad (12)$$

Maksimal ish bajarish qobiliyatiga *eksergiya* deyiladi va ε_0 deb belgilanadi.

$$\varepsilon_0 = q \left(1 - \frac{T_2}{T_1} \right); \quad (13)$$

Eksergiya tushunchasi istagan jarayonni, elementni yoki qurilmani termodinamik xossalaring darajasini tahlil qilishda keng qo'llaniladi.

Nazorat savollari

1. To`gri va teskari sikl deb nimaga aytildi?
2. To`g`ri siklning termik FIKini ifodasini yozib bering.
3. Teskari siklning sovitish koeffitsientini ifodasini yozib bering.
4. Karno siklini P-V va T-S kordinatada chizib bering.
5. Karno siklining termik FIKini ifodasini yozib bering.
6. Karno siklining amaliy va ilmiy xususiyatini tushuntirib bering.

2- mavzu

ISSIQLIK-KUCH QURILMALARI SIKLLARINING TAHLILI

Mavzu quyidagi ma'ruzalarni o'z ichiga oladi:

1. Issiqlik-kuch qirilmalarining samaradorligini baholash haqida umumiy ma'lumotlar.
2. Ichki yonuv dvigatellari.

Kalit so`zlar: *ichki yonuv dvigatellari (IYD), gaz turbina qurilmalari (GTQ) reaktiv dvigatellar, bug`-kuch qurilmalari, sikllarning tahlili, issiqlik, ish, sikl, siklning samaradorligi, izoxor va izobar issiqlik keltirish.*

2.1. Issiqlik-kuch qirilmalarining samaradorligini baholash haqida umumiy ma'lumotlar

Issiqlik kuch qurilmalari 3 turga bo'linadi:

1. *Ichki yonuv dvigatellari*, ya’ni bu turdagи dvigatellarda issiqlikni keltirish va qurilmani ishga qo’shish jarayon (yonig‘ini yoqish) dvigatel silindri ichida yuz beradi.

2. *Gaz turbinali qurilmalar va reaktiv dvigatellar*, bunday dvigatellarda yonilg‘i yoqish jarayoni ishlash jarayoning ajralmas butun bir bo‘lagi hisoblanadi.

3. *Bug‘-kuch qurilmalari*, bunday qurilmalarda ishchi jismga issiqlik yetkazib berish alohida moslamada, ya’ni bug‘ o‘chog‘ida (bug‘ generatorida) yetkazib beriladi. Ish jarayoni bug‘ turbinesida issiqlik yordamida yuzaga keladi .

Birinchi va ikkinchi guruh dvigatellari uchun umumiyl ishlash sikli – bu ishchi jism sifatida butun sikl, ya’ni ishlash jarayonida ishchi jism sifatida gazsimon mahsulotlarning bir moslamada (agregatda) joylashishida va tegishli bo‘lgan yuqori haroratlardagina ularni ideal tarzdagi gaz hisoblanadi.

Uchinchi guruhga xos bo‘lgan issiqlik-kuch qurilmalarining o‘ziga xos xususiyati – bu ularning ishlash jarayonida moslamada (agregatda) o‘zgarishlarning, ya’ni suyuqlik, to‘yingan bug‘, qizdirilgan bug‘ holatiga keltirilib, real gaz qonunlariga bo‘ysinadi.

Real issiqlik dvigatellarida issiqlikning ishga aylanishi qaytmas va juda murakkab jarayonlarning amalga oshishi bilan yuzaga keladi. Bunday jarayonlarni hisobga olish o‘z navbatida ishlash jarayonlarini va sikllarini termodinamik tahlil qilish imkoniyatini yo‘qga chiqaradi. Shu vaziyatni hisobga olib qurilmalarning samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillarni aniqlashda mavjud jarayonlar qaytar termodinamik jarayonlar bilan, ya’ni ularni tahlil qilishda mumkin bo‘lgan termodinamik usullar bilan almashtiriladi.

Shuning uchun issiqlik-kuch dvigatellarining ishlash jarayonini tahlil qilish 2 bosqichda amalga oshiriladi: 1 – avval nazariy qaytar ish jarayoni sikli tahlil qilinadi; 2 – keyin asosiy muqarrarlik manbalarini hisobga olgan holda real qaytmas sikl tahlil qilinadi.

Nazariy sikllarning ishlash jarayonlarining mukammallashish darajasi termik FIK bilan xarakterlanadi.

$$\eta_t = \frac{l_0}{q_t} = \frac{q_1 - q_2}{q_1} = 1 - \frac{q_2}{q_1};$$

Real siklda ishlash jarayonini tashkil qiluvchi ko‘plab jaryonlar qaytmas hisoblanadi. Masalan, dvigateldagi kengayish va torayish jarayonlari ishqalanish, puflanish va foydali ish jarayonining ma’lum darajada yo‘qotilishi

(isrof) bo‘lishi bilan birga kechadi. Qaytmas real siklning samaradorligi ichki FIK deb hisoblanuvchi jarayon bilan uzviy bog‘liq.

$$\eta_t = \frac{l_0^H}{q_1}; \quad (2.1)$$

bunda, l_0^H - qaytmas siklda yuzaga kelgan haqiqiy ish yoki ichki ish.

Sikl va ishlash jarayonining qaytmaslik darajasini belgilash uchun ichki nisbiy FIK deb nomlanuvchi nazariy l_0 ga l_0^H aniq ish jarayonining bir-biriga nisbati bilan bog‘liq tushunchadan keng foydalaniladi.

$$\eta_{0l} = \frac{l_0^H}{l_0}; \quad (2.2)$$

va nazariy sikl real siklga nisbatan qay darajada nomukammalligini ko‘rsatadi.

$$\eta_i = \eta_t \eta_{0i}; \quad (2.3)$$

Ichki FIKda hisobga olingan muqarrar yo‘qotishlardan boshqa issiqlik-kuch qurilmalarda qator yo‘qotishlar ham (o‘t oldirirish kameralari, bug‘ yo‘laklari, podshipniklar, gneratorlar va hokazolarda ishqalanish oqibatida yuzaga keladigan yo‘qotishlar) mavjud. Shuning uchun tashqi iste’molchiga yetkazib berilgan ish l_0^H sikl jarayonida olingan ishdan ancha past natijaga ega. Iste’molchiga berilgan haqiqiy foydali ishni sarflangan issiqlikka nisbati *qurilmaning samarador FIK* deyiladi.

$$\eta_e = \frac{l_e}{q_1}; \quad (2.4)$$

Shunday qilib, samarador FIK barcha ishlatilgan issiqlikni hisobga olganda foydali issiqlik bo‘lagini ifoda etib, shu tariqa butun qurilmaning samaradorligini ifoda etadi.

Bu yerda real qaytmas siklda issiqlik-kuch dvigatellarda dvigatellarning 2 ta turigagina xosligiga e’tibor qaratish lozim: ya’ni ishchi jism oqimida ishqalanish va puflanish jarayoni bilan yuzaga kelgan va yoki issiqlikni keltirish va olib ketish jarayonlarida oxirgi jarayonda harorat darajasining har xil bo‘lishi bilan yuzaga keladi.

Issiqlik-kuch dvigatellarining samaradorligini FIK usulida baholash yuqorida aytib o‘tganimizdek ishslash sikli va jarayonlarining ichki muqarrarligi

bilan va issiqlikni keltirish va olib ketish jarayonida haroratning har xil darajada bo‘lishini (tashqi muqarrarlik) bilan belgilangan yo‘qotishni (isrof) aniq hisobga olinmaydi.

Tashqi muqarrarlik issiqlikning ishlash jarayonining yo‘qolishiga, ya’ni ishlash jarayonini ta’minlovchi termodinamik mukammal tashkil topgan harorat darajasining foydalanilmasligiga olib keladi.

Issiqlik-kuch qurilmalarda unchalik katta bo‘limgan tashqi muqarrarlik issiqlikning yuqori issiqlik manbaidan issiqlikni (yonilg‘i mahsulotlarining) ishchi jismga (bug‘ga) yetkazib berilishi (o‘tkazilishi) jarayonida kuzatiladi. Ishchi jism harorati esa issiqlik manbai haroratidan ancha past.

Issiqlik-kuch qurilmalaridagi elementlarda muqarrarlik manbalarini aniqlash va ishlash natijasining qay darajada yuqorilagini aniqlashda issiqlik-kuch qurilmalarining samaradorligini tahlil qilishning eksergetik usulidan foydalanib aniqlanadi. Bu usul maxsus hisoblash tizimida keng qo‘llaniladi.

Termodinamik nuqtai nazardan termik FIK ishlash siklini (shu asnoda qurilmaning samarador FIK) yuqorilatishga har tarflama yondashish kerak. Lekin qator vaziyatlarda bu jarayon belgilangan shartlarning murakkablashtirilishi, ushlab turilishi va vositalarning tejalishi bilan bevosita bilan bog‘liq, ya’ni yuqori darajadagi FIKga ega qurilmaning maqsadga muvofiqligi, samaradorligi faqat texnik va iqtisodiy hisob-kitobgagina asoslanib qabul qilinadi.

2.2. Ichki yonuv dvigatellari

Ichki yonuv dvigatellari deb, porshenli dvigatellarga aytildi va bunday dvigatellarda yonilg‘ining yonishi (ya’ni issiqlikni keltirilishi) va yonilg‘i mahsulotlarining ishga aylanishi silindrda amalga oshiriladi.


2.1-rasmda 4 bosqichli ichki yonuv dvigatelining tuzilishi chizmasi va unig p-V koordinatalarida ishlash jarayoni diagrammasi ko‘rsatilgan. Dvigatel silindri 1, 2 ta klapan, ya’ni kirituvchi 2 va chiqaruvchi 4ga egadir, klapanlarning ochilishi va yopilishi maxsus gaz taqsimlovchi mexanizm (chizmada ko‘rsatilmagan) yordamida amalga oshiriladi. Porshen 5 katta kirituvchi harakatni, ya’ni qiya qisqich-shatunli mexanizmini (shatun 6 va qiya qisqich 7) amalga oshirib, 8 valning aylana harakatini yuzaga keltiradi.

Porshenning chetki taraflarida porshenning harakatlanish yo‘nalishi (*o‘lik nuqtalar* deb ataladi) silindr qopqog‘ida joylashgan bo‘lib, yuqori o‘lik nuqtadan qarama-qarshi tarafga pastki o‘lik nuqtada joylashgan nuqtalarga o‘zgaradi.

Porshen harakati bir o‘lik nuqtadan ikkinchi bir o‘lik nuqtaga teng taqsimlangan tezlikda harakatlanishi *taktlar* deb atalib, ular orasidagi yo‘lak

porshen yo‘li deb nomlanadi. Bir yurishda harakatlanadigan porshen harakati kengligi *silindrning ishchi kengligi* deb nomlanadi.

Ichki yonuv dvigatellarining ishlash jarayoni yuqori o‘lik nuqtadan porshen-5 ning chiq chiqaruv klapani 2 da (1 so‘rish taktida) pastga qarab harakatlanishidan boshlanadi. Natijada silindrغا benzin yoki kerosinning maxsus karbyurator deb nomlanuvchi qurilmada (yoki gaz yonilg‘isida aralashtiruvchi qurilma) hosil bo‘lgan havo bilan aralashgan qorishmasi kelib tushadi. Og‘ir yonilg‘i mahsulotlaridan (neft, solyar yog‘i) foydalanilganda so‘rish taktiga toza havo kelib tushadi.



2.1-rasm. Ichki yonuv dvigatellarining ishlash jarayonining qurilmasi va diagrammalari chizmasi

Pastki kiritish klapani 2 yopiladi va porshen ortga harakatlanganda *II* siqish taktini amalga oshiradi. Korbyuratorli ichki yonuvchi dvigatellarda yuqori o‘lik nuqtadan issiqlikning o‘t olishi elektr uchqunida (kuch bilan o‘t oldirish) amalga oshiriladi va yonilg‘i porshenning yuqori o‘lik nuqtasiga kelib tushishida yonadi. Shuning natijasida yonilg‘i mahsulotlari to‘xtovsiz amaliy almashuv jarayonida gaz yonishga tushish darajasi yuqori bo‘ladi.

Yuqori darajadagi ichki yonuv dvigatellarida kuchli siqilgan va $500-600^{\circ}\text{C}$ haroratda qizdirilgan havo yonilg‘iga aralashib suyuqlashib tez yonadi va o‘t oladi. Kompressorli dizel suyuq yonilg‘ining forsunkada o‘t olishi maxsus kompressorda siqilgan havo yoki mexanik tarzda, ya’ni yonilg‘i nasosi yordamida (kompressorsiz dizel) amalga oshiriladi. O‘t olish jarayoni amalga oshgandan keyin kengayish takti amalga oshiriladi(ya’ni ish takti *III*). Pastki o‘lik nuqta yaqinidan chiqaruvchi klapan ochiladi, bosim pasayadi va porshen-

ning pastki o'lik nuqtadan yuqori o'lik nuqtaga bo'lgan harakatlanishida ishlab bo'lgan (yonib bo'lgan) gazlar silindr orqali (*IV chiqarish takti*) atmosfera bosimidan ancha yuqori bo'lgan bosimda tashqariga chiqarilib tashlanadi. Ish jarayonining bunday diagrammasi odatda maxsus moslama yordamida – indikatorda yozib boriladi va bu tarzda olingan diagramma *indikatorli diagramma* deb nomланади. Indikatorli diagrammada porshen yordamida shu paytning o'zida tasvirlangan silindr kengligi chiqarib tashланади.

Dvigatel silindrдаги yuqori harorat ($1600-2000^{\circ}\text{C}$) tufayli uzlusiz tarzda silindr sovutilib turadi. Ko'pincha suv yordamida sovitiladi, shuning uchun silindr va yonilg'i mahsulotlari orasida issiqlik almashuvi yuz beradi.

Ichki yonuv dvigatellarida aniq, yaqqol yuzaga keladigan jarayonlar qaytmas hisobланади (bu jarayon oxirgi tezliklar, ishqalanish va oxirgi har xil haroratda issiqlik almashuvi bilan yuzaga keladi). Shuning uchun indekatorli diagrammani termodinamik sikl jarayoni bilan birdek qabul qilish noto'g'ri. Shu sababli ichki yonuv dvigatellarini termodinamik tahlil qilishda quyidagilarni inobatga olish zarur:

a) yonilg'inинг о't olish jarayoni q_1 issiqlikni kiritish (tashqi manbadan) jarayoni bilan almashtiriladi ishlatilgan (yongan) gazlarni chiqarib tashlash jarayoni - q_2 issiqlikni yig'uvchi qaytar jarayon bilan (izaxorli jarayon) almashtiriladi. Buning natijasida siklda doimiy ravishdagi sonda ishchi jismlar mavjud bo'ladi;

b) siqish va kengayish jarayonlari adiabatl qabul qilinadi;

c) ideal gaz to'xtovsiz issiqlik bilan ta'minlovchi ishchi jism hisobланади.

Shunday qilib, nazariy tahlil uchun ichki yonuv dvigatellarining aniq jarayonlari qaytar jarayonlardan iborat bo'lgan nazariy termodinamik sikllarga almashtiriladi.

Termodinamik nuqtai nazardan ichki yonuv dvigateli har qanday issiqlik dvigateli singari Karno sikli bo'yicha (eng yuqori termik FIKga ega $T_{\max} \div T_{\min}$ belgilangan haroratda) ishlashi joyiz. Lekin konstruktiv murakkabliklar natijasida, issiqlikning keltirilishi, olib ketilishi izotermalar bo'yicha bo'ladigan ichki yonuv dvigatelini ishlab chiqish imkonini bo'lмаган.

Amaliy jihatdan issiqlikni izoxor bo'yicha yoki izobar, yoki bo'lmasa izoxor va izobar aralash usullari yordamida keltirish juda qulay. Shuning uchun ichki yonuv dvigatellari uchun amaliy ahamiyatga ega 3 nazariy usul ishlab chiqilgan:

1) $V=\text{const}$ da issiqlikni keltirish sikli;


2) $P=\text{const}$ da issiqlikni keltirish sikli;

3) $V=\text{const}$ va $P=\text{const}$ da issiqlikni keltirish sikli.

2.2.1. Hajm o‘zgarmaganda ($V=\text{const}$) issiqlikni keltirish sikli

Hajm o‘zgarmaganda issiqlik keltirish sikli (jarayoni) kuch bilan harakatlantiriluvchi (yoqiluvchi) dvigatellarning ishlash jarayoniga o‘xshash (asoslangan) jarayon. Bunday dvigatellarning o‘ziga xos xususiyati yonilg‘i aralashmasini (benzin va havo bug‘larining qorishmasi) torayishidan iborat.


Bu sikl ikkita adiabata va ikkita izoxor (2.2-rasm) jarayonlaridan tashkil topgan. 1-2 adiabatasi yonilg‘i aralashmasini siqilishiga, 2-3 izoxora yonilg‘ining yonishiga (ya’ni issiqlik q_1 ni keltirilishiga) javob beradi va natijada bosim P_3 gacha ko‘tariladi. Bundan keyin yonuvchi mahsulotlar adiabatli tarzda kengayadi(3-4 jarayon). Izoxor jarayonda (4-1) gazdan q_2 issiqlik olib ketiladi.




2.2-rasm. Ichki yonuv dvigatellarida izoxor tarzda issiqlikni keltirilish sikli: p-V koordinatalarda (a); T-s koordinatalarda (b)

2.2.2. Bosim o‘zgarmaganda ($P=\text{const}$) issiqlikni keltirish sikli

Issiqlikning bosim o‘zgarmaganda keltirilishi jarayoni ikkita adiabatalardan: izobara va izoxoradan iborat (2.3-rasm) bo‘lib, kompressorli dizellar deb nomlanuvchi og‘ir yonilg‘i mahsulotlari uchun mo‘ljallangan dvigatellar uchun na’muna hisoblanadi.



a



b

2.3-rasm. Bosim o‘zgarmaganda ($P=\text{const}$) issiqlik keltiruvchi ichki yonuv dvigatellari: a) p-V koordinatalarda; b) T-s koordinatalarda

Bunday dvigatellarda oldin 1-2 adiabata yordamida toza havo siqiladi, natijaada harorat yonilg‘ining o‘zi yonishi (o‘t olishi) uchun talab qilinadigan darajasiga yetadi. Keyin 2-3 izobarik jarayonda yonilg‘ining sochilishi va yonishi ($q_1 < q_2$ issiqlikning keltirilishi) yuzaga keladi. Oxirida 3-4 adiabatik kengayish hosil bo‘ladi va izoxorik chiqarish jarayoni amalga oshadi.

2.2.3. Aralashgan usulda issiqlikni keltirish sikli

Issiqlikni aralash usulda keltirish siklida kompressorli bo‘lmagan yonilg‘ini mexanik tarzda puflovchi og‘ir yonilg‘i dvigatellariga xos jarayon (2.4-rasm). Bunday dvigatellarda yonilg‘ini yonishi avval $V=\text{const}$ chizig‘ida (2-3 jarayon) bosimni oshirish, so‘ngra doimiy bosimda (3-4 jarayon) orqali amalga oshiriladi.

Siklning asosiy sifati (xususiyati)ni belgilab beruvchi tushunchalarni kiritamiz:

$$\varepsilon = \frac{\vartheta_1}{\vartheta_2} \quad - \text{siqilish darajasi};$$

$$\lambda = \frac{P_1}{P_2} \quad - \text{bosimni ko‘tarish darajasi};$$

$$\rho = \frac{\vartheta_4}{\vartheta_3} \quad - \text{oldindan kengayish darajasi}.$$

Issiqlikni aralash usulda keltirish sıklida bir-biriga bog‘liq nuqtalarda gaz haroratini boshlang‘ich harorat va ishchi jism ideal gaz deb faraz qilgan tarzda siklning ma’lum xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aniqlash mumkin.

a) 1-2 adiabatik siqilish jarayoni uchun:

$$\frac{T_1}{T_2} = \left(\frac{\vartheta_1}{\vartheta_2} \right)^{k-1}, \quad T_2 = T_1 \varepsilon^{k-1};$$

b) 2-3 izoxorik jarayon uchun: $\frac{P_2}{P_1} = \frac{T_2}{T_1}$, $T_3 = \lambda T_2 = T_1 \varepsilon^{k-1} \lambda$;

c) 3-4 izobar jarayon uchun: $\frac{T_2}{T_1} = \frac{\vartheta_2}{\vartheta_1}$, $T_4 = \rho T_3 = T_1 \varepsilon^{k-1} \lambda \rho$;


d) 4-5 adiabatik kengayish jarayoni uchun: $\frac{T_5}{T_4} = \left(\frac{\vartheta_4}{\vartheta_1} \right)^{k-1} = \left(\frac{\vartheta_4}{\vartheta_3} \frac{\vartheta_3}{\vartheta_1} \right)^{k-1} = \rho^{k-1} \frac{1}{\varepsilon^{k-1}}$ formulasidan foydalanish mumkin.

Bunda, $T_5 = T_4 \rho^{k-1} \frac{1}{\varepsilon^{k-1}} = T_1 \lambda \rho^k$


Aralashgan usulda keltiruvchi va olib ketuvchi issiqlikni quyidagicha yozamiz:

$$q_1 = q_1' + q_1'' = c_{mm}(T_3 - T_2) + c_{pm}(T_4 - T_3) = c_{vm}[T_1 \varepsilon^{k-1}(\lambda - 1) + k\lambda(\rho - 1)]$$

$$q_2 = c_{vm}(T_5 - T_1) = c_{vm}T_1(\lambda \rho^k - 1)$$



a



b

2.4-rasm. Ichki yonuv dvigatellarida issiqlikning aralash usulda keltirilish sikli. a) P-V koordinatalarida; b) T-S koordinatalarida.

Bunda issiqlikning aralash usulda keltirilishi siklining termik FIK:

$$\eta_{t,v,p} = 1 - \frac{q_2}{q_1} = 1 - \frac{c_{vm} T_1 (\lambda \rho^k - 1)}{c_{vm} T_1 \varepsilon^{k-1} [(\lambda - 1) + k \lambda (\rho - 1)]} = 1 - \frac{\lambda \rho^{k-1} - 1}{\lambda - 1 + k \lambda (\rho - 1)} \bullet \frac{1}{\varepsilon^{k-1}}$$

Ko‘rinib turganidek, termik FIK ε – siqilish darajasi ortishi bilan λ -bosimning ko‘tarish darajasi ρ – oldindan kengayish darajasining kamayishi bilan pasayib boradi.

Nazorat savollari

1. IYD larining guruhlarini tavsiflab bering.
2. IYD kamchiligi va yaxshi tomoni nimadan iborat.
3. Bosim o`zgarmaganda issiqlik keltiruvchi dvigatelni tavsifi.
4. Hajm o`zgarmaganda issiqlik keltiruvchi dvigatelni tavsifi.

3-mavzu

BUG‘-KUCH QURILMALARINING SIKLLARI

Mavzu quyidagi ma’ruzalarini o‘z ichiga oladi:

1. Bug‘-kuch qurilmalarining asosiy sikllari.

Kalit so`zlar: *energiya, organik va yader yoqilg`isi, suv, quruq to`yingan bug`, o`ta qizigan bug`, Renkin sikli, bug` qizdirgich, turbina, elektr generator, kondensator, entalpiya, harorat, bosim.*

3.1. Bug‘-kuch qurilmalarining asosiy sikllari (Renkin sikli)


Bug‘-kuch qurilmalarida yaderli yonilg‘i energiyasi mexanik energiyaga aylantirilishi suv bug‘i orqali amalga oshiriladi. Bunday qurilmalar zamonaviy yirik energetika bazasi hisoblanadi. Oddiygina bug‘-kuch qurilmaning asosiy ishslash chizmasi 3.1-rasmda, nazariy sikli 3.2-rasmda ko‘rsatilgan.

Nasos yordamida (3-4 jarayon) siqilgan suv bug‘ qozonining o‘choq qismiga yuboriladi. Yonayotgan yoqilg‘idan ajralgan issiqlik hisobiga suv qaynaydi (4-5 jarayon), so‘ng bug‘lanish hosil bo‘ladi (5-6 jarayon). Natijada,

olingan quruq to‘yingan bug‘ bug‘ni qayta qizdiruvchi moslamada talab qilingan T_1 (6-7 jarayon) haroratgacha qizdiriladi.


Qizdirilgan P_1 va T_1 parametrlariga ega bug‘, bug‘ turbinasiga kelib tushadi. U yerda bug‘ texnik jarayon (1-2 jarayon) natijasida P_2 bosimigacha adiabatik kengayishi yuzaga keladi. Turbinadan keyin bug‘ trubagacha o‘xshash issiqlikni almashtiruvchi apparati bo‘lgan kondensatorga kelib tushadi. Kondensator quvurchalarining yuqori tarafi sirkulyatsiyalovchi suv yordamida sovutiladi. Kondensatorda suv yordamida bug‘dan bug‘lanishdagi issiqlik ajratib olinadi va bug‘ o‘zgarmas bosimda P_2 , T_2 haroratida suyuqlikga aylanadi (2-3 kondensatsiyalash jarayoni). Keyinchalik sikl takrorlanadi. Bu sikl *Renkin sikli* deb ataladi.

Shunday qilib, ichki yonuv dvigatellariga nisbatan bug‘-kuch qurilmalarida yonilg‘ining yonuvchi mahsulotlari siklda bevosita ishtirok etmaydi, faqatgina issiqlik manbasi bo‘lib xizmat qiladi. Ishchi jism sifatida har qanday suyuqlik (asosan suv) xizmat qiladi.



3.1-rasm. Bug‘-kuch qurilmalarining asosiy issiqlik chizmasi

Belgilangan harorat o‘lchamida bug‘-kuch qurilmalarida termodinamik tarzda ancha natijali va foydali sikl sifatida Karko siklidan foydalansa ham bo‘ladi. Ammo uni amalga oshirish katta qiyinchiliklar va murakkabliklar bilan bog‘liq. Karko siklini nam bug‘ holatida (a56ba, 3.2-rasm) qo‘llash samarali. Bu siklda bug‘ kondensatsiyasi izotermalni jarayonda b-a to‘liq hosil bo‘la olmaydi, natijada keyingi adiabatik jarayonda a-5 Renkin siklidagidek suv siqilmaydi, uning o‘rniga katta hajmga ega nam bug‘ samarali natija beradi.



3.2-rasm. Asosiy sikl (Renkin sikli)
p-V koordinatalarda (a); T-s koordinatalarda (b)

Bug‘ning siqilishi maxsus kompressor va unga sarflanadigan katta ish (a5 p_1 p_2 a) ko‘lamni bilan bog‘liq bo‘lgani sababli qurilmaning umumiyligi tejamligini pasaytrib qo‘yganligi uchun Karno siklining termodinamik jihatdan afzalligini amalda tasdiqlab ko‘rsatadi. Shu sababli Karno sikli amaliyotda keng tadbiq etilmagan. Lekin nazariy jihatdan ushbu sikl yuqorida ta’riflangan o‘lchamdagiga haroratlarda eng maksimal darajadagi termik FIK sifatida tan olingan.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan Renkin siklida bug‘ to‘liq kondensatsiyalanadi va undan keyin nasosda 3-4 adiabatik siqiladi. Renkin siklining FIKi umumiyligi hisobda quyidagicha hisoblanadi:

$$\eta_t = \frac{q_0}{q_t} = \frac{q_1 - q_2}{q_1} = 1 - \frac{q_2}{q_1};$$


q_1 issiqligi adiabatik jarayonda (4-5) ta’sir etadi.

6-1 jarayonda (3.2-rasm) P_1 bosimida uni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$q_1 = i_1 - i_2';$$

2-3 jarayonida kondensatorda bug‘ orqali paydo bo‘ladigan issiqlik bosimida quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$q_2 = i_2 - i_2';$$



3.3-rasm. i-s koordinatalarda turbinada bug‘ning adiabatik kengayishi grafigi

Bunda, i_2 - turbinadan chiqayotgan bug‘ning entalpiyasi, 00'322'0 yuzada o‘lchanadi. q_1 va q_2 larni o‘rniga qo‘yib, quyidagini hosil qilamiz:


$$\eta_{t\text{Renk}} = \frac{q_1 - q_2}{q_1} = \frac{i_1 - i_2' - (i_2 - i_2')}{i_1 - i_2'} = \frac{i_1 - i_2'}{i_1 - i_2}; \quad (3.1)$$

Bundan ko‘rinib turibdiki, siklda issiqlik 45612'3'4yuza, ajralgan issiqlik 22'3'32 yuza, foydalanilgan q_0 issiqlik $q_0 = (i_1 - i_2)$ - 456124yuza hisoblanadi.


Bug‘-kuch qurilmasi siklining FIKni i-S diagramma yordamida aniqlash juda qulay. Bunda i_1 va i_2 lar 1-2- turbinada bug‘ning adiabatic kengayishi jarayonini boshlang‘ich va oxirgi parametrlari bo‘yicha aniqlanadi (3.2-rasm).

i_2' to‘yingan bug‘ jadvali bo‘yicha T_1 haroratida p_2 bosimga to‘g‘ri kelgan holda aniqlanadi. Asosiy xarakteristikalaridan biri bo‘lgan bug‘ning solishtirma sarfi – d_0 hisoblanadi. U ideal dvigatelning issiqlik balansidagi tenglamadan $D_0(i_1 - i_2) = 3600N$ bug‘ning nazariy taqsimoti uchun natija kelib chiqadi ($1\text{kW}\cdot\text{soat}$).

$$d_0 = \frac{D_0}{N} = \frac{3600}{i_1 - i_2}; \quad (3.2)$$



3.4-rasm. Bug‘ning boshlang‘ich bosimini Renkin siklining termik FIKiga ta’siri



3.5-rasm. O‘ta qizdirilgan bug‘ haroratining bug‘-kuch qurilmalarining termik FIKiga ta’siri

(3.1)dan ko‘rinib turibdiki, η_{tRenk} kattalikka bug‘ning holat parametrlerini hisoblab chiqish mumkin emas. Buning uchun ekvivalent Karko siklidan foydalilanadi. $T_{1o'rt}$ va $T_{2o'rt}$ siklining o‘rtacha harorati oralig‘i ortib borishi bilan istalgan siklning FIKi ham ortib boradi.

Issiqlikni keltirilishida Renkin siklini $T_{1o'rt}$ haroratini ikki usul bilan amalga oshirish mumkin: bug‘ning bishlang‘ich P_1 bosimini oshirish va t_1 qizdirilgan haroratni oshirish usullaridir. Birinchi usulda (3.4-rasm) $T_{1o'rt}$ o‘rtacha haroratni oshirilishi bug‘ hosil qilish haroratining ko‘tarilishi T_H dan T'_H gacha amalga oshiriladi.


Masalan, boshlang‘ich bosim 2,0 dan 10,0 MPa gacha ($t_H=212^\circ\text{C}$ va $t'_H=310^\circ\text{C}$ $t_H=500^\circ\text{C}$ o‘ta qizdirilgan bug‘ harorati uchun ham bir xil bo‘lgan va $P_2=0,004$ MPa kondensatiga ega) η_{tRenk} ni 0,368 dan 0,426 gacha, ya’ni 16,2 % ga oshiradi.

Shuni ham aytib o‘tish joizki, haroratni o‘zini ko‘tarish hech qanaqa samara bermaydi. Agar η boshqacha usullarda ko‘tarish imkonib bo‘lganida (masalan, suv bug‘ini qaynash harorati yuqori bo‘lgan boshqa suyuqlikka almashtirish imkonib bo‘lsa) u holda bunday vaziyatda bug‘ni boshlang‘ich juda kichik bosimlaridan foydalinish afzaldir. Shuning bilan birga, boshlang‘ich bosimni oshirishning salbiy oqibatlaridan biri – bu bug‘ning namlik darajasini ortishiga yoki quruqlik darajasini kamayishiga olib keladi ($x'_2 < x_2$).

O‘ta qizdirilgan bug‘ haroratining ($T_1' > T_1$) ortib borishida issiqlikni keltirilishida o‘rtacha harorat ham ($T_{o\cdot rt}' > T_{o\cdot rt}$) oshib boradi (3.5-rasm). Ammo bug‘ haroratining ortib borilishi chegarasi metallning issiqlikka chidamliligi bilan cheklanadi. Bug‘ni o‘ta qizdirish harorat ($x_2' > x_2$) namligini sezilarli darajada pasayishiga olib keladi. Natijada bir paytda p_1 bosim va T_1 haroratning ko‘tarilishidan, ya’ni bug‘ning yuqori boshlang‘ich o‘lchamlaridan foydalanib, samarali natijaga erishsa bo‘ladi. Zamonaviy bug‘-kuch qurilmalarining elektr stansiyalarda takomillashib borishi, suv bug‘ining boshlang‘ich o‘lchamlarini ortishi bilan erishilmoqda.

$T_{2o\cdot rt}$ o‘rtacha haroratini issiqlikning keltirilishi jarayonida pasayishi, atrof muhitning haroratiga bog‘liq. Agar atrof muhitning harorati sharoitidan kelib chiqsak (havo, daryo, o‘zan suvlari), u holda siklda past harorat $20-30^{\circ}\text{C}$ ga teng bo‘lishi mumkin. Bu suv bug‘i uchun $p_2 = 0,0024-0,0043 \text{ MPa}$ bosimiga mos keladi.

Shuning uchun bug‘-kuch qurilmalarining ishlash xususiyati bug‘ turbinasi kondensatoridagiga nisbatan tarang vakkum (97-95% atrofida) holatini ushlab turish bilan bog‘liq. Vakkum haroratining pasayib borishi (p_2 ning oshishi) (3.6-rasmida ko‘rsatilganidek) siklining termik FIKi($T_{2o\cdot rt}' \ll T_{2o\cdot rt}$) ham kamaytiradi.



3.6-rasm. Bug‘ oxirgi bosimining bug‘-kuch qurilmalari siklining termik FIK ga ta’siri

Renkin siklini FIKini oshirish uchun p_1 , t_1 boshlang‘ich bug‘ o‘lchamlarini oshirib borish lozim. Chunki η_t ni T_2 ni pasaytirish hisobidan oshirish imkonи

bo‘lmaqani uchun bu maqsadning amaliy yakuniga erishish uchun p_1 va t_1 ni oshirishdan boshqa yo‘l yo‘q. Siklning optimal o‘lchamlari faqatgina iqtisodiytexnik hisoblash asosida tanlanadi.

Bug‘-kuch qurilmalarning qaytar jarayonlardan iborat nazariy sikliga nisbatan, real sikllar qaytmas jarayonda kechadi. Bug‘ni turbinada kengayishi, asosan bug‘ni turbina devoriga boshqa gidrodinamik holatlar bilan birga ishqalanishidan yuzaga keladigan yo‘qotishlar hisobiga kengayadi. Bunda ishqalanish issiqlikka aylanib, t_2 dan $t_{2\partial}$ gacha yakuniy holatda bug‘ning entalpiyasini oshiradi. Shuning uchun turbinadagi bug‘ning adiabatli kengayishi entropiyaning ortishi bilan qaytar jarayoni to‘g‘ri 1-2 emas, 1-2 ∂ egri chizig‘ida bo‘ladi (3.7-rasm).

Real dvigatelda nisbatan ish (ya’ni ichki yoki indikatorli deb nomlanuvchi ish)


$$l_1 = i_1 - i_{2\partial};$$

Ideal dvigatelga qaraganda past darajada bo‘ladi:

$$l_0 = i_1 - i_2.$$

Unda bug‘ turbinasining ichki FIK nisbatan quyidagicha:

$$\eta_{0l} = \frac{l_1}{l_0} = \frac{i_1 - i_{2\partial}}{i_1 - i_2}. \quad (3.3)$$



3.7-rasm. i-s koordinatalarida turbinadagi bug‘ning kengayishi jarayoni grafigi

Mutlaq ichki FIK – bu real dvigatelda samarali foydalanilgan issiqlikning siklda ishlatalgan issiqlikka nisbati hisoblanadi.

Renkin sikli uchun mutloq ichki FIK quyidagicha aniqlanadi:

$$\eta_{i_{\text{Renk}}} = \frac{l_1}{q_1} = \frac{i_1 - i_{2\partial}}{i_1 - i'_2}; \quad (3.4)$$

Nazorat savollari

1. Bug` kuch qurilmalarini tavsiflab bering.
2. Renkin siklini chizma tasviri.
3. Renkin siklini p-V va T-s diagrammasi.
4. Renkin siklini h-s diagrammasi.

4-mavzu


BUG`-KUCH QURILMALARIDA ISSIQLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Mavzu quyidagi ma’ruzalarni o‘z ichiga oladi:

1. Regenerativ sikl.
2. Bug`ni qayta ikkilamchi qizdirish sikli.
3. Issiqlik bilan ta’minalash sikli.
4. Bug`-gaz sikli.

Kalit so`zlar: *regeniratsiya, ikkilamchi qizdirish, issiqlik bilan ta`minlash, bug` gaz sikli, bosim, harorat, entalpiya, issiqlik almashinish apparati, bug` qizdirgich.*

Hozirgi kunda bug`ning yuqori va haddan tashqari yuqori o‘lchamlari ($P_1 = 23,0-30,0 \text{ MPa}$; $t_1 = 570-600^\circ\text{C}$) va kondensatordagi vakkum (97% yoki $P_2 = 0,003 \text{ MPa}$) o‘zlashtirilayotgan paytda, Renkin siklining termik FIKi 50%dan oshmaydi. Real qurilmalarda foydalanilgan samarali issiqlik taqsimoti jarayonlarini ichki qaytmas jarayonlardan tashkil topganligiga bog‘liq yo‘qotishlar sababli judayam past. Shu sababli bug`-kuch qurilmalari issiqlik samaradorligini oshirish uchun bir qancha boshqa usullar ham taklif etilgan.



4.1-rasm. Bug‘-kuch qurilmalari chizmasi (a) va regenerativ sikli (b).


Asosan ishlatilayotgan bug‘ (regenerativ sikl) hisobidan ta’minlovchi suvni qizdirish, bug‘ni ikkilamchi qayta qizdirish (ikkilamchi qayta qizdirish sikli), issiqlik bilan ta’minlash (birgalikdagi sikl), va boshqalar keng qo‘llaniladi.

4.1. Regenerativ sikl

Bu siklninig boshqalaridan farqi shuki, kondensatordan keyin $28-30^{\circ}\text{C}$ ga ega kondensat qozonga kelib tushishdan oldin maxsus issiqlik almashinuv apparatlarida (4.1,a-rasm) turbinaning oraliq pog‘onalaridan olinadigan bug‘ hisobiga qizdiriladi. Suvni bosqichma-bosqich qizdirib (bug‘ni uning kengayishi jarayonida tanlanishi hisobidan) Karno regenerativ siklidan foydalansa bo‘ladi (4.1,b-rasmda ko‘rsatilgan). Tanlangan bug‘lar sonini cheksizlikka yetkazib (regenerativ siklning baland cho‘qqisi) kengayish jarayonini punktirli qiya darajasiga yetkazib, uning 4-4' qizdirish jarayonini ekvidistantli qiya darajasiga yetishini ta’minlash mumkin. Ammo texnik jihatdan amalga oshirish mumkin emas. Faqatgina amaliy iqtisodiy tarafdan qizdirishning 5-8 bosqichini qo‘llanilishigina qo‘llab-quvvatlangan.

Kondensatni qizdirish uchun bug‘ni tanlashda bir tarafdan issiqligining sarflanishi pasayib borsa, ikkinchi tarafdan turbinada bug‘ olish jarayonida ishi ham pasaytiradi. Ushbu hodisalarining qarama-qarshi taraflariga qaraganda bug‘ni tanlab olish har doim η , ko‘paytiradi. Bu ta’minlovchi suvni qizdirishda olingan bug‘ kondensatsiyasining issiqligi tashqi manbadan issiqliknii keltirish 4-4' qismida to‘xtatiladi va shu asnoda regenerativ siklda issiqliknii tashqi

manbadan keltirishning o‘rtacha harorati ortib boradi (q_1 tashqi issiqlikning keltirilishi 4'-5-6-1 qismdagina amalga oshirilishi mumkin).



4.2-rasm. Birlamchi bug‘ oluvchi bug‘-kuch qurilmalarini regenerativ chizmasi (a) va i-s diagrammasi (b)

Regenerativ siklni amalga oshirish bilan bog‘liq masalalarni amalga oshirishda $i-S$ diagrammadan foydalangan avzal. Buning uchun regenerativ sikl chizmasi va birlamchi bug‘ oluvchi bug‘-kuch qurilmalarini ko‘rib chiqamiz (4.2-rasm). 1-2 adiabatlarining kengayishi p_{20} izobarasi bilan kesishuvi olingan bug‘ning holatini ko‘rsatuvchi 0 nuqtasini beradi.

4.2-rasmda ko‘rinib turganidek, 1 kg bug‘dan (turbanaga kelib tushgan) bug‘ning a kg p_{20} olingan bosimigacha kengaytiriladi, bunda $l_1 = \alpha(i_1 - i_{20})$, $\alpha(1 - \alpha)$ kg samarali ish amalga oshirilib, turbinada p_2 oxirgi bosimigacha kengaytiriladi. Bu oqimning samarali ishi $l_2 = (1 - \alpha)(i_1 - i_2)$ hisoblanadi. 1 kg bug‘ning umumiy bajaradigan ishi regenerativ siklda quyidagicha:

$$l_0 = l_1 + l_2 = \alpha(i_1 - i_{20}) + (1 - \alpha)(i_1 - i_2)$$

yoki

$$l_0 = i_1 - i_2 - \alpha(i_{20} - i_2) \quad (4.1)$$

1 kg bug‘ni olishda sarflanadigan issiqlik

$$q_1 = i_1 - i_{20}$$

Regenerativ siklning termik FIK

$$\eta_{reg} = \frac{l_0}{q_1} = \frac{i_1 - i_2 - \alpha(i_{20} - i_2)}{i_1 - i'_{20}}. \quad (4.2)$$

Regenerativ qizdirgichlarda qizdirgichdan suv to‘yilish holatida chiqadi. Olingan bug‘ning miqdori aralashtiruvchi qizdirgich uchun issiqlikning balans tenglamasidan aniqlanadi:

$$(1 - \alpha)(i'_{20} - i'_2) = \alpha(i_{20} - i'_{20})$$

bunda,


$$\alpha = \frac{i'_{20} - i'_2}{i_{20} - i'_{20}}. \quad (4.3)$$

Bunda, i'_{20} - P_{20} bosimida olingan suyuqlikning entalpiyasi; i_{20} - turbinadan ajralib chiqqan bug‘ entalpiyasi; i'_2 - kondensatorдан chiqqan kondensat entalpiyasi.

Ta’minlovchi suvni regenerativ qizdirish bug‘-kuch qurilmalarining termik FIKni 8-12% ga oshiradi.

4.2. Bug‘ni qayta ikkilamchi qizdirish sikli

Yuqorida aniqlanganidek, boshlang‘ich bosim darajasining ortib borishining salbiy oqibati – bu adiabatli kengayish yakunida bug‘ning namlanish darajasining oshib ketishidir.



4.3-rasm. Qurilma chizmasi (a) va bug‘-kuch qurilmalarida bug‘ni ikkilamchi qayta qizdirish sikli (b).

Namlik darajasining belgilangan miqdordan oshib ketmasligi uchun qizdirilgan bug‘ning boshlang‘ich harorati oshiriladi, hamda bosqichma-bosqich yoki ikkilamchi qizdirish usulidan foydalaniladi. Bosqichma-bosqich qizdirish usulining avzalligi, shundaki 1-2 (4.3-rasm) turbinasini dastlabki bosqichlarida bug‘ni kengaytirgandan so‘ng P_{np} to‘xtovsiz bosimda ikkinchi ПП2 moslamasida qayta qizdirilishida T_3 haroratiga yetkaziladi. Keyin bug‘ T_2 turbinaning keyingi bosqichiga kelib tushib, kondensator 3-4 bosimiga kengaytiriladi. Natijada bug‘ quruqligi x_2 dan x'_2 ga yetkaziladi. Shu bilan birga bir vaqtning o‘zida siklning termik FIK ortib ketadi (agar 2-30 o‘ta qizdirilish jarayonida issiqlikni bir marta qizdirib kiritishda siklda harorat o‘rtachadan yuqori bo‘lsa).

4.3. Issiqlik bilan ta’minlash sikli

Termodinamikaning ikkinchi qonunga ko‘ra, bug‘ qozonidagi bug‘ga aylantirilayotgan issiqlik (50%) kondensatorda pastki manbara yetkazib berilsa va sovitish suvida befoyda sovitiladi ($15-30^{\circ}\text{C}$). Bunday past haroratga ega issiqlik (past potensialli issiqlik) na bir isitish yoki texnik zaruriyatlar uchun yaroqsiz hisoblanadi.

Bunday issiqlikdan samarali foydalanish uchun q_2 ni hech bo‘lmasa $80-100^{\circ}\text{C}$ gacha qizdirish kerak. Buning uchun p_2 bug‘ bosimini (turbinadan chiqqan) $0,077-0,1 \text{ MPa}$ gacha yetkazish shart. Bunday qurilmalar (zararlangan vakuumli) bosimga qarshi (yaroqsiz) hisoblanadi. Elektr energiyasini yetkazib berish bilan birga ular tashqi issiqlik manbaiga issiqlikni bug‘ yoki issiqlik suv holatida yrtkazib beradi va bu jarayon *issiqlik yetkazilishi* deb nomlanadi.

Bunday qurilmalarning sikli va chizmasi 4.4-rasmida ko‘rsatilgan. Bu kabi qurilmalarda bug‘ turbinadan (kondensatorga ega bo‘limgan) keyin ТП (2' nuqtasi) va yuqori bosimda issiqlikga muhtoj manbara jo‘natiladi. Manbara issiqlik q'_2 berilganidan so‘ng bug‘ kondensatsiyalarini (2-3 jarayon) va kondensat nasos yordamida qozonga qaytariladi.

Shunningdek 123451 kondensatsiya sikli o‘rniga 12'3'451 issiqlik sikli qo‘llaniladi. Bu siklda sovuq manbara beriladigan issiqlik soni (пл. 2'3ab2') imoratlarni, har xil ishlab chiqaruvchi tashkilotlarning texnologik jarayonlarini, qizdirishda va ishlab chiqarishda keng foydalaniladi. Shu kabi aralash prinsipga asoslanib ish yurituvchi elektr stansiyalari ***issiqlik elektr markazlari*** deb nomlanadi.


Bosimga qarshilik I_0 elektr energiyasining ajralishini kamayishiga va termik FIK ni (пл. 12'3'451 << пл. 12341) pasaytiradi, lekin issiqlikdan umumiy foydalanish sezilarli darajada oshib boradi.

$$q_{ishl} = l'_0 + q'_2$$

Aralash jarayonning farqli xususiyati q_{ishl} q_1 kiritilgan issiqlikka nisbatan issiqlikdan foydalanish koeffisientiga teng:

$$\eta_{i.t} = \frac{q_{ishl}}{q_1} = \frac{l'_0 + q'_2}{q}; \quad (4.3)$$


Real vaziyatda q_2 butun issiqligi $\eta_{i.t} = 1$ (yoki 100%) bo‘lganidagina foydalaniladi. Real sharoitlarda issiqlikning ma’lum qismi 60-80% ga yetadi. Bu o‘z navbatida oddiy kondensatsiyali qurilmalarning tejamkorligidan ancha yuqori.



4.4-rasm. Issiqlik ajratuvchi qurilmalar chizmasi (a) va sikli (b)

Katta ko‘lamda issiqlik va elektr bosimini o‘zgartirishda ko‘pchilik issiqlik elektr stsnsiyalarida oraliq tanlangan bosimdagi bug‘li kondensatsiya turbinalaridan keng foydalaniladi. Shu kabi chizmalardan biri 4.5-rasmda ko‘rsatilgan. Bu yerda bug‘ning ma’lum qismi turbinaning tanlangan bo‘limlaridan olinib, (regeneratsiya jarayonidagidek) issiqlikga muhtoj manbalarga yetkazilib beriladi. Bu ikki bug‘ oqimlari oziqlantiruvchi bak orqali qaytib bug‘-kuch qurilmasiga kelib tushadi.

Elektr energiyasi va issiqlikning aralash usulda olinishi elektr stansiyalarida iqtisodiy tomondan eng samarali usullardan biri bo‘lib - issiqlik ajratish texnologiyasining asosini tashkil etadi.



4.5-rasm. Prinsipial, ya’ni ishlash tartibi chizmasi

Shuni aytib o’tish kerakki, IEMidan issiqlikni texnologik va boshqa jarayonlar uchun olinishi, juda kichik bo’lgan qozonxonalarini qurishga imkoniyat qoldirmaydi. Undan tashqi yonilg‘ini yoqishda yuqori haroratga ega bo’lgan issiqlikni, kichik haroratga ega bo’lgan jismga ishlatishni kamaytirishga olib keldi.


4.4. Bug‘-gaz sikli

Issiqlikni ishlatish effektivligini oshirish gaz-turbina qurilmalari bilan bug‘ kuch qurilmalarini birgalikda ishlatish y’li bilan amalga oshrish mumkin. Bunday siklni chizmasi 4.6a - rasmida ko‘rsatilgan. Havo kompressor 1 yordamida bug‘ qozoni Kga beriladi. Hosil bo’lgan yoqilg‘I mahsulotlari $700 \div 750^{\circ}\text{C}$ harorat bilan T_2 gaz turbinasiga kelib tushdi , shunday qilib bug‘ qozonining o‘choq qismi gaz turbinasi uchun yonish kamerasi bo‘lib hisoblanadi.

Bug‘ qozoniga kelayotgan kondensatga avval isitilishi gaz turbinasidan chiqib kelayotgan gazlar orqali gaz suv isitgichida amalga oshiriladi, bu jarayon **da** jarayoni bo‘lib hisoblanadi . Shunday sharoitlarda gaz turbinasidan chiqib ketayotgan gazlarning issqligi effektiv ravishda ishlatiladi.

Demak, bug‘-gaz sikllari bug‘ sikliga qaraganda avfzallikka ega bo‘lib hisoblanadi, chunki turbina yuqori pog‘onalarida yuqori hororatga ega bo’lgan ishchi jism ishlatiladi. Bug‘-gaz siklining alohida sikllaridan avfzalligi shundaki, ya’ni bug‘-gaz siklining pastki pog‘onasi bo‘lib hisoblangan bug‘ siklida sovutgichning past haroratlari ishlatilishi mumkin. Gaz-turbina

sikllarida chiqib ketayotgan gazlarning harorati 150°C , bug‘-kuch qurilmalarida $25\div30^{\circ}\text{C}$ tashkil etadi.



4.6-rasm. Qurilma chizmasi(a);
bug‘-gaz siklining T - s diagrammasi (b)

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, birqalikda bug‘-gaz qurilmalari yoqilg‘ini 15% ga iqtisod qilishga olib keladi. T - S diagrammada 345123 - bug‘-suv sikli, abcd-gaz turbina sikli hisoblanadi. Bug‘-gaz sikllari zamonaviy energetikada ko‘proq ishlataladi. Hozirda bug‘-gaz aralashmasi bo‘yicha ishlaydigan qurilmalar ishlab chiqarilmoqda. Gaz turbina qurilmalarda kompressorni ishga tushirish uchun foydali ishdan ma’lum qismi sarflanadi. Bu esa ishchi jismni ental’piyasiga bog‘liq va ental’piya ortishi hisobiga kamayadi. Haroratni ortishi ishchi jismni ortishi hisobiga ishchi jismni ental’piyasi ortishi, metallni issiqlikka chidamliligi bilan ifodalanadi.

Nazorat savollari

1. Bug‘ turbina qurilmalarida ishni bajarilishi uslubi nimaga bog‘liq?
2. Bug‘ turbina qurilmalarida Karno siklini yuzaga keltirib bo‘lmasligi sabablarini aytib bering.
3. Rentgen siklini tavsifini va uning asosiy xususiyatlarini tushuntirib bering.
4. Rentgen siklini FIKini oshirish yo‘llarini aytib bering.

5-mavzu

GAZ TURBINA QURILMALARI

Mavzu quyidagi ma'ruzalarini o'z ichiga oladi:

1. Bosim o`zgarmaganda issiqlik keltiruvchi GTQ ining sikli.
2. Hajm o`zgarmaganda issiqlik keltiruvchi GTQ ining sikli.
3. Gaz turbiba qurilmasining FIK ini oshirish usullari.

Kalit so`zlar: *gaz va suyuq yoqilg`ilarning yonish mahsulotlari, kompressor, yonish kamerasi, turbina, soplo, foydali ish koeffitsienti, hajm va bosim o`zgarmas, ish, issiqlik, regeneratsiya.*

5.1. Bosim o`zgarmaganda issiqlik keltiruvchi GTQ ining sikli

Bug`-turbina qurilmalarining gaz turbinalardan asosiy kamchiliklari: suv va bug` tayyorlash qurilmasi; yo`qligi; qurilmaning kichikligi; qurilmaning tez ishga tushishi; qurilma ishlatishga kam xarajat ketishi.


Gaz turbina qurilmalarining kamchiligi gaz turbinasining kam vaqtga chidamliligi (gazning harorati 1000°C va undan yuqori) va eng kichik quvvat (GTQ quvvatning maksimal qiymati 150 ming kWt, PTQ - 1 mln. kWt). GTQ ning porshenli dvigateldan ustunligi shundaki, uning kam massaliligi va gabbaritning uncha katta emasligi; quvvatning juda kattaligi; qaytarilish harakatining detali yo`qligi.

Gaz turbina qurilmada ishchi jism bo`lib suyuq yoki gazsimon yoqilg`i hisoblanadi. Ishchi jism,yuqori harorati va bosimga ega bo`lgan holda, yonish kam erasidan soploga boradi. So`ngra katta tezlik bilan gaz turbinasining parraklariga uriladi, undan kinetik energiya mexanik energiyaga aylanadi. Gaz turbina qurilmalarining 2 turi ishlatiladi: issiqlikning doimiy bosim ostidagi qurilmalar va issiqlik doimiy hajmdagi qurilmalari.


GTQ ni doimiy bosimdagi issiqlik keltiruvchi sikli.

Oddiy gaz turbina qurilmalarning $P=\text{const}$ (5.1-rasm)dagi issiqlik keltiruvchi siklini ishlashini ko`rib chiqamiz. Kompressor 2da havo siqiladi va yonish kamerasi – 1ga uzatiladi. Nasos 3 bilan yonish kamerasi 1ga suyuq yoqilg`i maxsus forsunkalar yordamida yuboriladi. Havo va yoqilg`ining aralashmasi elektr razryad bilan yoqiladi va yonadi. Yonish mahsulotlari $P=\text{const}$ holda reaktivli soplo 4ga boradi, u yerda kengayadi. Soplidan yonish mahsulotlari gaz-turbina 5ning parraklariga boradi va undan keyin atmosferaga chiqarib yuboriladi. Generator orqali elektroenergiya ishlab chiqariladi. P-V diagrammada (5.2-rasm) ushbu qurilmaning siklini ko`rib chiqamiz.

Diagrammada ko`rsatilganifek: 1-2 - kompressorda havoning adiabatik siqilishi; 2-3 - yoqilg`ining yonishi tufayli q_1 issiqlikni ishchi jismga izobarik keltirilishi ; 3-4 - turbina parraklarida yoqilg`i mahsulotning yonishi natijasida adiabatik kengayishi va foydaliishning bajarilishi; 4-1 - ishlatilgan gazning izobar ravishda atrofga chiqarib yuborishi, bundan tashqari ishchi jismdan q_2 issiqlikning olib ketilishi.



5.1-rasm. Doimiy bosimda issiqlik keltiruvchi qurilmaning chizma tasviri



5.2-rasm. Doimiy bosimda issiqlik keltiruvchi GTQ ning PV-diagrammasi

Qurilmaning asosiy xarakteristikalari quyidagilardir:

Kompressorda bosimning oshirish darajasi

$$\beta = \frac{P_2}{P_1}$$

Ishchi jismning isobar kengayish darajasi

$$\rho = \frac{v_3}{v_2}$$

Foydali ish koeffitsienti

$$\eta_t = 1 - \frac{q_2}{q_1}$$

Ishchi jism orqali q_1 va q_2 parametrlarni aniqlash:

$$q_1 = C_p(T_3 - T_2);$$

$$q_2 = C_p(T_4 - T_1).$$


Olingen kattaliklarni termik F.I.K.ni aniqlaymiz:

$$\eta_t = 1 - \frac{C_p(T_4 - T_1)}{C_p(T_3 - T_2)} = 1 - \frac{T_4 - T_1}{T_3 - T_2}$$

Bu tenglik FIK ifodasi bo`lib hisoblanadi. Yoqilg`ini yonish natijasida yuqori haroratga ega bo`lish yoqiishlatilgan gazni atmosferaga chiqishini kamaytirish. FIK kompressorda bosimning oshish darajasi va adiabatic ko`rsatgichiga bog`liqdir:

$$\eta_t = 1 - \frac{1}{\beta^{\frac{k-1}{k}}}$$

Qurilmaning T-S diagrammasi quyidagi ko`rinishga ega.



5.3-rasm. Doimiy bosimda issiqlik keltiruvchi GTQsi siklining T-S diagrammasi

Jarayonning nomlanishi:


1-2 - adiabatik siqilishi; 2-3 - issiqlikning izobarik keltirilishi;
3-4 - adiabatik kengayishi; 4-1 - yoqilg`i mahsulotlarini izobarik ravishda atrofga chiqarib yuborish, T-S diagrammada 6-2-3-5-6 yuza issiqlikni to`g`ri keladi, olib chiqligan joyga esa 6-1-4-5-6. Diagrammada oson ko`rsatish mumkin ya`ni bosimni oshishi bilan havoning harorati ortadi va shunda foydali issiqlikning miqdori ortadi.

5.2. Hajm o`zgarmaganda issiqlik keltiruvchi GTQning sikli

Bunday siklni amalga oshirish uchun oldingi qurilmaga resiverid ish qo'shish kerak (bosimni to`g`irlash uchun kattasi g`imli qurilma uni yordamida havoning doimiy bosimda turishini ta`minlaydi). Klapan o`rnatilgan joyga va yonish mahsulotini chiqaradigan joyda yonish kamerasingning tuzilishi o`zgaradi.

Kompressorning ishlash usulini ko`rib chiqamiz. Kompressorda havo siqiladi va ressiverga boradi. Klapan yordamida siqilgan havo yonish kamerasiga yuboriladi. Nasos klapan orqali yoqilg`ini yonish kamerasiga yuboradi. Klapan yonish kamerasida havo va yoqilg`i uzatish paytida yopiq bo`ladi. Shuning uchun ham havo va yoqilg`i doimiy bosimda yonadi. Elektr chaqmoqdan yonish hosil bo`ladi. Yonishdan keyin aralashmaning harorati va mahsulotning yonish bosimi oshadi va klapan ochiladi. Keyin gaz turbinaga soplo orqali uzatiladi. So`ngra sikl qaytariladi.

p-V diagrammada doimiy hajmdagi issiqlik uzatilish siklini ko`rib chiqamiz (5.4-rasm). Diagrammada 1-2 - kompressorda adiabatic havoning siqilishi; 2-3 - yonish kamerasiga issiqlikning izoxorik olib kelinishi; 3-4 – gaz turbinada yonish mahsulotlarining adiabatic kengayishi va foydali ishning bajarilishi; 4-1-ishlatilib bo`lgan gazlarni izobarik ravishda atrof-muhitga chiqarilib yuborilishi.



5.4-rasm. GTQ ning doimiy hajmdagi issiqlik keltiruvchi siklning P-V diagrammasi

Siklning xarakteristikalarini:

- 1) Bosimning oshish darajasi

$$\beta = \frac{P_1}{P_2}$$

2) Bosimning qo`shimcha oshirish darajasi

$$\lambda = \frac{P_3}{P_2}$$

3) Termik foydaliish koeffitsienti


$$\eta_t = 1 - \frac{C_p(T_4 - T_1)}{C_p(T_3 - T_2)} = 1 - k \frac{T_4 - T_1}{T_3 - T_2}$$

bu yerda: k - adiabata ko`rsatkichi.

Siklning termik FIK β bosimning oshish darajasiga bog`liq va qo`shimcha bosim ortishiga λ bog`liq: FIK bu kattaliklarni ortishi bilan ortadi .

T-S diagrammada (5.5-rasm) siklni ko`rib chiqamiz va $P=\text{const}$ bo`lganda issiqlik keltiruvchi sikl bilan taqqoslaymiz. Bu diagrammada 12341 yuza $V=\text{const}$ bo`lganda issiqlik keltiruvchi sikl va $P=\text{const}$ bo`lgandagi issiqlik keltiruvchi sikl esa 123`4`1 yuza bilan tasvirlangan.

1-2 - kompressorda havoning adiabatic siqilishi; 2-3-issiqlikning izoxorik keltirilishi; 2-3`- issiqlikning isobar ravishda keltirilishi; 3-4 - $V=\text{const}$ da qurilmadagi foydali ishning amalga oshirilishi; 3`-4`- $P=\text{const}$ da qurilmadagi foydali ishning amalga oshirilishi; 4-1(4`-1) - ishlatilgan gazlarni izobarik ravishda atrofga chiqarib yuborishi.



5.5-rasm. Doimiy hajmda issiqlik keltirishda GTQ siklning
T-s diagrammasi


Diagrammadan ko`rinib turibdiki, GTQ sikldan $V=\text{const}$ da issiqlik keltirilishi siklni FIKi yuqori, $P=\text{const}$ da eng kam issiqlik keltirilishi (14561 va 14`5`61) va eng ko`p olib o`tilgan issiqliklari (23562 va 23`5`62). Haqiqiy

sharoitda $V=\text{const}$ bo`lganda issiqlik keltiruvchi siklning konstruktivligi murakkabligini hisobga olish kerak bo`ladi. Undan tashqari turbinaning FIKi bosim o`zgarishi bilan ishlashini ham hisobga olish kerak. Shuning uchun ham amaliyotda gaz turbina qurilmalari dvigatelni $P=\text{const}$ bo`lganda issiqlik keltiruvchi siklga qaraganda konstruksiyasi oddiyligini e`tiborga olish mumkin.

5.3. Gaz-turbina qurilmasining FIKni oshirish usullari

GTQning termik FIK bosimni oshirish darajasi (β). Yoqilg`ini yonishda gazning harorati ortadi, shuning uchun ham turbinaning parraklari ishdan chiqadi va soploli apparatlar sovishi qiyinlashadi.

GTQning FIKni oshirish uchun issiqlik regeneratsiyasi ishlatiladi, kompressorda havoning siqilishining ko`p bosqichli jarayoni ishlatiladi. Bu foydali natija beradi va issiqlikning ishga aylanishida qurilma haroratni yuzaga kelishiga olib keladi. Issiqlikni $P=\text{const}$ bo`lganda keltirish (5.6-rasm) da GTQ regenerativ siklini ko`rib chiqamiz. Kompressorda siqilgan havo regenerator 5ga yuboriladi, $P=\text{const}$ da gazga issiqlik berildi. Yonish kamerasi 1 dan chiqqandan keyin soplo 2 orqali turbina 3ga boradi siqilgan havo regenerator 5 dan, yoqilg`i esa yoqilg`i nasos 6da forsunka orqali yonish kamerasi 1ga beriladi.




5.6-rasm. $P=\text{const}$ bo`lganda issiqlik keltiruvchi GTQni sikli va regeneratsiyasi

5.7-rasmda GTQ ning P-V diagrammasi tasvirlangan, 1-2 - kompressorda havoning adiabatik siqilishi; 2-3 - regeneratorda issiqlikning izobarik berilishi; 5-3 - yonish kamerasida $P=\text{const}$ da issiqlik borilishi; 3-4 - yoqilg`i mahsulotining adiabatik kengayishi; 4-6 - regeneratorda gazdan issiqlikni

izobarik berilishi; 6-1 regeneretordan chiqayotgan gazni izobarik issiqlik borishi (ishlatilgan gazni atrof-muhitga tarqalishi).

Ishlatilgan gazni issiqlik hisobiga foydaliish 25462 yuzada amalga oshadi.



5.7-rasm. p-V diagrammada GTQ ni $P=\text{const}$ da issiqligi
va regeneratsiyasi

Ushbu qurilmalarning termik foydali ish koeffitsienti gazning boshlang`ich haroratiga bog`liqdir, gazning adiabatic kengayishi oxiridagi harorati va regeniratsiya darajasiga bog`liq ravishda o`zgaradi. Regeniratsiya darajasi o`z navbatida issiqlik almashinish apparatining tuzilishiga bog`liq bo`ladi.

GTQning iqtisodiyligini izotermik issiqlik keltirish va olib ketish bilan oshrish mumkin. Amalda izotermik siqilish va issiqliknari keltirish qurilmaning tuzilishini qiyin ekanligiga bog`liq ravishda amalgam oshirib bo`lmaydi. Haqiqiy siqilish jarayonini izotermik jarayonga yaqinlashtirish uchun oraliq sovitishga ega bo`lgan ko`p pog`onali kompressorlar ishlatiladi. Haqiqiy issiqlik keltirishni jarayonini izotermik jarayonga keltirish uchun yoqilg`i mahsulotlarini kengayishi bilan bog`langan turbinani alohida pog`onalarida pog`onali yonishni qo`llaniladi. Kengayish va siqilish pog`onalari qancha ko`p bo`lsa termik FIK shuncha ko`p bo`ladi. Ko`p miqdorda yonish kameralari va sovitgichlarni bo`lishi maqsadga muvofiq emas, chunki ular GTQning tuzilishini murakkablashtiradi. Ko`pincha texnik-iqtisodiy qarashlarga qaraganda 2 pog`onali kengayish va 3 pog`onali siqilishdagi GTQ ishlatiladi. Bunday qurilmalarda havo kompressorning alohida pog`onalarida ketma-ket siqiladi. Yuqori bosimgacha siqilgan havo 1 yonish kamersiga kelib tushadi, u yerda yuqori haroratgacha isiydi. So`ngra turbinada kengaygan gaz 2 yonish kamerasiga tushadi, bu yerda yoqilg`ini $P=\text{const}$ jarayonida yonishi hisobiga

kerakli haroratga chaqiziysi. So`ngra yoqilg`i mahsulotlari turbinaning ikkinchi pog`onasida kengayadi va atmosferaga chiqarib yuboriladi.

Nazorat savollari

1. Mexanik ishni asosiy manbalarini tavsifi.
2. Bosim o`zgarmaganda issiqlik keltiruvchi gaz turbina qurilmasining siklini tushunturib bering.
3. Hajm o`zgarmaganda issiqlik keltiruvchi siklning ishslash uslubini tushuntirib bering.
4. Bosim o`zgarmaganda issiqlik keltiruvchi gaz turbina qurilmasining FIK ini oshirish uslublarini aytib bering.

6-mavzu

KOMPRESSORLAR

Mavzu quyidagi ma’ruzalarni o‘z ichiga oladi:

1. Kompressorlarning ishslash uslubi va turlari.
2. Haydash jarayoni tahlili.
3. Porshenli kompressorning indikator diagrammasi.


Kalit so`zlar: *hajmiy kompressor, parrakli kompressor, siqilgan gaz, kinetik energiya, haydash jarayoni, siqilish jarayoni, indikator diagramma*.

6.1. Kompressorlarning ishslash uslubi va turlari

Kompressorlar turli gazlarni yoqish uchun ishlatiladi. Kompressorda siqilgan havo, texnikaning turli sohalarida keng qo`llaniladi. Masalan, siqilgan havoda ishlovchi, metallurgiya sanoatida o`choqlarga havo purkashda, metallarni katta bosim ostida kesishda, qurilish ishlarini olib borishda va h.k.


Ko`proq tarqalgani mexanik kompressorlar hisoblanadi. Ishslash uslubiga qarab mexanik kompressorlar hajmiy va parraklikka bo`linadi. Hajmiy kompressorlarda bosim ortishi gazning hajmini chegaralangan devorlarni bir-biriga yaqinlashishi hisobiga bo`ladi. Ular porshenli, rototsion turlarga bo`linadi. Parrakli kompressorlarda siqilish ikki holatda yuzaga keladi: avval gazga tezlik rotoni aylanishi hisobiga beriladi, so`ngra harakatga kelmaydigan maxsus kanaldan (diffuzorda) oqimning kinetik energiyasi potensial

energiyaga aylanadi, ya`ni tezlik kamayib, bosim ortadi. Parrakli kompressorlar markazdan qochma va o`qliga bo`linadi.



6.1-rasm. Porshenli kompressorning chizma tasviri


Porshenli kompressor (6.1-rasm). Krivoship-shotun mexanizmi 6 yordamida harakatga keladigan porshen 2 ega bo`lgan silindr 1dan tashkil topgan. Porshenli chapdan o`ngga harakatga kelishida klapan 3ni ochiq holatida gazni silindrga so`rilishi yuzaga keladi. Porshenni qayta harakatida, ya`ni o`ngdan chapga harakatlanishida havo siqiladi va L₁ klapanni silindrda itarib ochadi.



6.2-rasm. Rototsion kompressorning chizmasi

Rotatsion kompressorlar (6.2-rasm) porshinni o`rnini sirg`anuvchi plastina 2 o`rnatilgan rotor bajaradi. Markazdan qochma kuch ta`sirida ushbu plastinalar qobiq 1ga yaqinlashtirilgan bo`ladi. Rotor korpusda ekstsentrif joylashgan bo`ladi, shuning uchun plastinalar orasiga tushgan gaz sikli rotor aylanishi hisobiga hajmda kamayib boradi, shuni hisobiga bosim ortadi. **Markazdan qochma kompressor chizmasi** 6.3-rasmda ko`rsatilgan. Kanal 3

ko`rinishida ishchi parraklardan tuzilgan disk 2, korpusda aylanadi. Parraklar oralig`idagi kanalga kirgan gaz markazdan qochma kuch ta`sirida har tarafga otilib, parraklari qobiqqa mahkamlangan diffuzor 4ga kelib tushadi. Diffuzorlarda gazning kinetik energiyasi potensial energiyaga aylanadi. Shunday yo`l bilan olingan siqilgan gaz kerak joydaishlatildi.



6.3-rasm. Markazdan qochma kompressor chizmasi

6.2. Haydash jarayonini tahlili


Kompressorlar turlicha bo`lishiga qaramay, ulardagi gazli siqilish jarayoni bir xil bo`ladi, ya`ni haydalish jarayonini termodinamik asosi bir xildir.

Haydalish jarayonini termodinamik tahlil qilish, kompressoring eng katta iqtisodiyligini oshirishga mo`ljallangan shartlarni qo`yishdan iboratdir, ya`ni haydash jarayoniga juda kam ish sarflashdir. Haydash jarayonini amalga oshirish uchun sarflanganish I_h , termodinamikaning 1-qonuning analitik ifodasi asosida aniqlanadi ($I_{ov} = -I_h$) va issiqlik ($q = -q_{sov}$). Agar oqimning potensial energiyasini hisobga olmasak u quyidagicha yoziladi:

$$-q_{sov} = h_2 - h_1 + (\omega_2^2 - \omega_1^2)/2 - I_s$$

Bundan

$$L_h = i_2 - i_1 + \frac{\omega_2^2 - \omega_1^2}{2} + q_{sov} \quad (6.1)$$



6.4-rasm. Kompressorda siqilish jarayoni:
a - p-V diagrammada; b - T-s diagrammada

Qo`shni kompressorda oqimning kirishdagi va chiqishdagi tezligi nolga teng deb olindi, ya`ni $w_1=w_2$, unda

$$l_h = i_2 - i_1 + q_{sov} \quad (6.2)$$

(6.2) ifoda haydash jarayonini asosiy ifodasi hisoblanadi.

Tahlil qilishni davom ettirish uchun siqilish jarayonini p-V va T-s diagrammasini ko`rib chiqamiz (6.4-rasm). Issiqlikni olib ketilishiga asosan siqilish jarayoni 1-2_{iz} izotermik (kompressorni to`liq sovitilishi), 1-2_{ad} adiabatik (to`liq sovitilmaydigan) va 1-2_{pol} politropik (qisman sovitiladigan) bo`ladi.

Izotermik siqilishda haydash jarayoniishi (texnik ish) 12_{iz}P₂P₁ yuzi to`g`ri keladi va analitik 6.1 ifodadan aniqlanadi.

$$L_h^{iz} = i_2 - i_1 - q_{sov}$$

Ideal gaz uchun


$$l_h^{iz} = q_{sov} = -q_t = RT \ln \frac{P_2}{P_1} \quad (6.3)$$

$Q_m = T(S_2 - S_1)$ bo`lgani uchun

$$L_h^{iz} = -q_T = T(s_2 - s_1) \quad (6.4)$$

Adiabatik siqilishda $q_{sov}=0$. Unda 6.2 dan quyidagiga ega bo`lamiz

$$L_x^{ad} = h_2 - h_1 \quad (6.5)$$



6.5-rasm. Kompressorda adiabatic siqilish jarayoni:
a - T-s diagrammada; b- i-s diagrammada

Adibatik siqilish jarayoni T-S diagrammada 1-2 to`g`ri chiziq (6.5,a-rasm) bilan ifodalanadi. Unda kompressorni ishga tushirish uchun sarflangan ish 123451 yuza orqali ifodalanadi, bu esa entalpiyalar farqi $i_2 - i_1$ ga teng keladi.


Bu entalpiyalar farqini i-S diagramma orqali aniqlash qulay hisoblanadi (6.5,b-rasm) ideal gazlar uchun adiabatic haydash jarayonini termik parametrlar orqali ifodalash mumkin, $n=k$ bo`lganda

$$l_h^{ad} = \int_{P_1}^{P_2} v dP = \frac{k}{k-1} P_1 v_1 \left[\left(\frac{P_2}{P_1} \right)^{\frac{k-1}{k}} - 1 \right], \quad (6.6)$$

Bunda $\frac{P_2}{P_1} = \beta$ - bosimni oshirish darajasi.

6.3. Porshenli kompressorning indikator diagrammasi

Kompressorning indicator diagrammasi deb, indigator deb ataluvchi qurilma orqali bosim va hajm orasidagi bog`lanishni tajriba orqali aniqlab beradigan diagrammaga aytildi.



6.6-rasm. Porshenli kompressorning indicator diagrammasi:
a - ideal holat uchun; b - real holat uchun

Ushbu bog`lanishni mexanik va gidravlik yo`qolishlarga ega bo`lmagan va porshin silindrning geometrik hajmi hisoblanuvchi ideal kompressorlar uchun ko`rib chiqamiz. Bu yerda 4-1 chizig`i (6.6,a-rasm) so`rish jarayoni bo`lib, parlanish o`ngga siljishi tufayli yuzaga keladi, 2-3 gazni qandaydir idishga chiqib ketish jarayoni hisoblanadi. Porshenni boshdan boshlab harakatlanishida so`ruvchi klapan ochiladi va silindrda bosim juda tez 3-4 vertikal chiziq orqali pasayadi. Shuni nazarda tutish kerakki 4-1 va 2-3 jarayonlardagi gazning parametrlari ya`ni solishtirma hajm-v o`zgarmaydi, balki gazning miqdori va uning to`liq hajmi - V o`zgaradi. Ular termodinamik jarayon bo`lib hisoblanmaydilar, shuning uchun bularni indicator diagrammadagidek chizib bo`lmaydi. Real kompressorlarda porshen va silindr qopqog`i klapanlar orasida oraliq V_0 hajmga ega bo`lgan siqilib ulgurmagan havo miqdori hosil bo`ladi, buni zararli bo`shliq deyiladi. Shuni hisobiga 2-3 jarayon (6.6,b-rasm) hamma gaz silindrda chiqib ketmaydi, qolGAN ushbu zararli bo`shliqda V_1 hajmda siqiladi va porshinni orqaga harakatlantirishida 3-4 chizig`i orqali kengayadi. So`rish jarayonida ishchi hajmning bir qismi kengayotgan gaz bilan to`ladi. Silindrning kerakli ishchi hajmi V_1 so`rishning haqiqiy hajmi bo`lgan - V_n gacha kamayadi.

Shuning uchun kompressoring hajmi FIKdegan tushuncha kiritiladi. U zararli bo`shliqni kompressoring unumdorliligiga ta`sirini xarakterlaydi.

$$\eta_v = \frac{V_h}{V_1} \approx 0,75 \div 0,90$$

Nazorat savollari

1. Kompressorlar qayerda ishlataladi?
2. Kompressor qaysi xususiyatiga qarab tavsiflanadi?
3. Bir pog`onali porshenli kompressorlarning ishlash uslubi nimaga bog`liq? Qaysi siqilish holati ko`proq iqtisodiy hisoblanadi?
4. Real va ideal P-V diagrammalarni farqi nimada?
5. Kompressorda siqilish jarayoni nima bilan chegaralanadi?

7-mavzu

SOVITGICH QURILMALAR VA ISSIQLIK NASOSLARINING SIKLLARINI TAHLILI

Mavzu quyidagi ma’ruzalarini o‘z ichiga oladi:

1. Sovitgich mashinalarining umumiy xarakteristikasi.
2. Bug‘ kompression sovitgich mashinalarining sikllari.

Kalit so`zlar: *sovutgich mashinalari, issiqlik nasoslari, kompression, obsorbsion, kompressor, siqilgan bug‘, sovuq unumdoorligi, sovituvchi modda, sovutish koeffitsienti, ishchi jism, yanada ko`proq sovutish*.

7.1. Sovitgich mashinalarining umumiy xarakteristikalari

Sun’iy ravishda sovuqlikni ishlab chiqarish va issiqlikni past haroratdan yuqori haroratga yuborilishi, ishlab chiqarishni turli sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Haroratni atrof muhit haroratidan ham kichik haroratgacha tushirish va shu holatda ushlab turuvchi issiqlik mashinalariga *sovitgich qurilmalari* deyiladi.

Issiqlik nasosi – bu issiqlikni kichik potensialga ega bo‘lgan manbadan (kichik harorat) iste’molchiga (issiqlik tashuvchi) yuqori harorat bilan yetkazib beruvchi qurilmadir.

Sovitishga erishish haroratiga qarab, -70°C haroratga erishish holatini xarakterlovchi – *sekin sovituvchi qurilmalar*; qattiq sovituvchi holatini yuzaga keltiruvchi, ya’ni -900°C gacha haroratni sovitib beruvchi *sovitgich qurilmalarga* bo‘linadi.

Sovitgich qurilmasida ishlatiladigan ishchi jism (sovituvchi modda)ga qarab sovitgich qurilmalari quyidagilarga bo‘linadi:

- 1) havoli;

2) bug‘li.

Bug‘li sovitgich mashinalarida ishchi jism sifatida kam qaynaydigan jismlar (masalan, ammiak, freon) bug‘lari ishlataladi.

Sovitgich mashinalari va issiqlik nasoslarida issiqlik sovuq jismdan issiq jismga beriladi, bu esa termodinamikaning II qonuniga asosan, o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi, buning uchun uni kompensatsiya qiladigan qandaydir jarayon sodir bo‘lishi shart. Buning uchun esa qo‘shimcha ish sarf bo‘lishi kerak bo‘ladi.

Sovuqlikni olish uchun kompressorni ishga tushirish jarayonida sarflangan ishni sovuqlik olish uchun sarflangan energiya bo‘yicha ishlaydigan qurilmalarni *kompression qurilmalar* deyiladi, termodinamik jarayonni bajarilishi uchun issiqlik tarkibida energiya sarflanadigan mashinalarga *absorbsion qurilmalar* deyiladi.

Sovitgich mashinalari va issiqlik nasoslari teskari (soat strelkasiga qarama-qarshi) aylanma jarayonlarda ishlaydi.

Berilgan haroratlар oralig‘ida nazariy jihatdan sovitgich qurilmalarining qulay sikli bo‘lib teskari Kärno sikli hisoblanadi. Lekin konstruktiv jihatdan qiyinchiliklar yaratishi va ishqalanishdagi katta yo‘qolishlari tufayli teskari Kärno siklini yuzaga keltirish mumkin emas.


Ishlab chiqrishda birinchi bo‘lib sovuqlikni hosil qilish, kompression havoli sovitgich qurilmalarida amalga oshirildi, lekin hozirgi vaqtida ularning kattaligi va effektivligi kamligi tufayli bunday qurilmalar ishlatilmayapti.

7.2. Bug‘ kompression sovitgich qurilmalarining sikllari

Havoli kompression qurilmalarga qaraganda yanada qulay va foydali bo‘lib, to‘yingan bug‘ holatida teskari Kärno sikli bo‘yicha ishlaydigan bug‘ compression mavjuddir. Kichik haroratlarda qaynaydigan modda (sovituvcchi modda)ning to‘yingan bug‘i compressor bilan so‘rilib, P_2 bosim bilan ish sarflanishi hisobiga adiabatic siqiladi (1-2 jarayon).

Kompressordan siqilgan bug‘ kondensatorga kelib tushadi. U yerda o‘zgarmas P_1 bosim bilan bug‘dan q_1 issiqlikni sovuq suv orqali olib ketilishi hisobiga (2-2'-3 jarayon) o‘ta qizigan bug‘ning harorati kamayadi (2-2') va so‘ngra to‘yingan bug‘ning o‘zgarmas haroratida to‘liq kondensatsiya (2'-3) amalga oshadi.

Sovituvcchi moddani haroratini kamaytirib borish natijasida kengaytirish mashinasini qo‘llash va unda 3-4’ adiabatic kengayishni amalga oshirish mumkin edi. Bunday holatni amalga oshirishda qurilmani soddallashtirish uchun kengaytirunchi qurilmani o‘rniga rostlovchi drossel ventil D ni o‘rnatish mumkin. Buning natijasida sovituvchi modda 3-4 jarayonida kichik bosim va haroratda drossellanadi.



7.1-rasm. Bug‘ kompression sovitgich mashinasining chizma tasviri (a);
T-s diagrammasi (b)

T-s difgrammada drossellanish jarayoni shartli ravishda $h=const$ punktir egri chizig‘I bilan ko‘rsatilgan. Drossel vintelidan keyin (**4 nuqta**) hosil bo‘lgan suyuqlik-bug‘ aralashmasi (nam bug‘) kichik harorat T_2 bilan quvurlar orqali sovitgich kamerasi **C** joylashgan bug‘latgich **B** ga kiradi. O‘zgarmas T_2 harorat va bosim P_2 bilan q_2 issiqlik sovitgichdan (sovuqlik ishlab chiqarish) olinadi va shuni hisobiga **4-P** jarayon yordamida sovituvchi moddaning bug‘lanishi (qaynashi) yuzaga keladi. Hosil bo‘lgan bug‘ (**Inuqta**) yana kompressor orqali so‘riladi va sikl yana qaytariladi.

Siklning effektivligi sovitgich koeffitsenti – ε bilan xarakterlanadi.

$$\varepsilon = \frac{q_2}{l_0} = \frac{q_2}{q_1 - q_2}; \quad (7.1.)$$

Sovitilayotgan muhitning 1 kg sovituvchi moddadan olingan q_2 issiqlik miqdori sovuqlik ishlab chiqarish deyiladi va quyidagicha aniqlanadi:

$$q_2 = 41 \text{ va } 4 \text{ yuza } = i_1 - i_4 = i_1 - i_3 \quad (7.2)$$

Shuni aytish kerakki, kengayuvchi mashinani drossel ventil bilan almashtirish natijasida qurilmaning tuzilishini soddalashtiradi va uning narxini

pasaytiradi; drossellanish jarayoni qaytmas jarayon bo'lgani uchun u sovuqlik ishlab chiqarishni $44^1 3^1$ a 4 yuzaga va uni samaradorligini ham pasaytiradi.

Bosim o'zgarmaganda kondensatordagi sovituvchi muhitga berilgan issiqlik:

$$q_1 = 233^1 v_2 \quad yuza = i_2 - i_3 \quad (7.3)$$

unda

$$\varepsilon = \frac{q_2}{q_1 - q_2} = \frac{i_1' - i_3'}{i_2'' - i_1''} \quad (7.4)$$

Ifodadagi entalpiyalarning qiymatini sovituvchi moddaga mos keluvchi diagrammalardan aniqlanadi. T-s diagrammani qo'llaganda issiqlik miqdorlariga mos keluvchi yuzalarni hisoblashga to'g'ri keladi. Sovitgich qurilmalarni siklini chizishda p-i diagramma qo'llansa birmuncha masala soddalashadi, chunki ishni issiqlik ifodasi adiabata bo'yicha va issiqliknini izobara bo'yicha to'g'ri chiziqli ko'rinishga ega bo'ladi. 7.2 – rasmda P-i diagramma keltirilgan. 7.2, v- rasmda, 7.1,b- rasmga to'liq mos keluvchi bug' kompression qurilmalarning sikli keltirilgan p-i diagrammadagi sovitish koeffitsienti

$$\varepsilon = \frac{i_1' - i_4'}{i_1'' - i_2''} = \frac{av}{vc}$$

Bundan shu narsa aniq bo'ldiki, ε bug'latgichdagi T_2 haroratni ortishi ($4-1$ chiziq yuqorida joylashgan, sovish ishlab chiqarish yuqori) bilan ortadi, kondensatordagi sovituvchi suvning harorat pasayishi T_1 kamayadi. (2_1-2 chiziq pastda joylashgan, kompressorga sarflangan ish kichik). Kompressordagi 1-2 adiabatik siqilishda sarflanadigan ish quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$L_0 = i_2 - i_1 \quad (7.5)$$

T-S diagrammada 1234^1 yuza mos keladi.


Sovitgich mashinalarining kompressorlarini ishga tushirish uchun zarur bo'ladigan quvvat quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$N = \ell_0 m = \frac{Q_2}{\varepsilon} \quad (7.6)$$

Bu yerda: m – sovitish moddasining sekundlik sarfi ;

$Q_2 = q_2 m$ – qurilmaning sovuqlik ishlab chiqarishi.

$$(7.6) \text{ ifodada } \varepsilon = \frac{q_2}{\ell_0} = \frac{Q_2}{m\ell_0} \text{ hisobga olingan.}$$



7.2-rasm. p-i diagramma (a) va bug' kompression sovitgich qurilmasining sikli (b)

Bug' kompression qurilmalarining real sikllari nazariy siklidan shu bilan ajralib turadiki, kompressordagi siqilish jarayoni ishqalanishni ta'sirida adiabata bo'yicha emas, balki politropa bo'yicha bo'ladi. Shunga asosan kompressorni ishlashi uchun sarflar ko'paygani hisobiga, xaqiqiy sovitish koeffitsienti nazariyga qaraganda kichik bo'ladi.

Sovitgich mashinalarining effektivligi sovituvchi moddaning xossalariiga ham bog'liqdir. Ular quyidagilardir:

- kichik haroratdagi sovituvchi moddaning to'yingan bug'larining bosimi atmosfera bosimidan katta bo'lishi shart, chunki bunday holda vakuumga ega bo'lган havoni so'rishdan ko'ra, sovituvchi moddani oqib ketishiga qarshi kurashiladi. Sovituvchi moddaga tushgan havo issiqlik uzatilishni juda yomonlashtiradi va namlikka ega bo'ladi. Bu namlik esa past haroratlarda muzlashga olib keladi;

- bug'lanish issiqligi iloji boricha yuqori bo'lishi shart, chunki u sovuqlik ishlab chiqarishni orttiradi;

- sovituvchi moddalar inson organizmiga zarar yetkazmasligi shart.


Eng ko'p tarqalgan sovituvchi moddalardan biri ammiak ($t_f=-33,5^{\circ}\text{C}$) hisoblanadi. Uning xususiyati shundaki, u yuqori sovitgich koeffitsentiga va siklda nisbatan yuqori bosimga ega emas. Termodinamik xossalari boyicha

freon-12 ammiakka yaqin bo‘lgani uchun hozirda freon-12 ishlatalmoqda, ammo uning bug’lanish harorati kichikligi sababli sovituvchi moddaning sarfi ko‘p bo‘ladi.

7.3. Havoli sovitish qurilmasining sikli


Bu qurilmalar ko‘pchilik materiallarni, ishlab chiqarish mahsulotlarini va oziq-ovqat mahsulotlarini sovitishda qo‘llaniladi. Ishchi jism sifatida eng qulay va zararli bo‘lmagan havo ishlataladi.

To‘rtta blokdan tashkil qurilmaning ishlash uslubini ko‘rib chiqamiz: 7.3 va 7.4-rasmlarda qurilmaning chizma tasviri va T-S diagrammasi ko‘rsatilgan.



7.3-rasm. Havoli sovitish mashinasining chizma tasviri

1-kompressor; 2-issiqlik almashinushi apparati; 3-kengaytiruvchi silindr yoki detandr; 4- sovitish kamerasi



7.4-rasm. Havoli sovitish mashinasining T-s diagrammasi

Kompressorda havo adiabatik siqiladi, ushbu jarayon 1-2 chizig‘i bilan ifodalanadi. So‘ngra siqilgan havo issiqlik almashinushi apparatida izobarik ravishda sovutiladi, bu jarayon 2-3 chizig‘i bilan ifodalanadi. Bunda havodan

q_1 issiqlik olib ketiladi. Detandrda siqilgan,sovutilgan havo boshlang‘ich bosimgacha adiabatik kengayadi. Bunda havoning harorati $-60\text{--}700^{\circ}\text{C}$ gacha pasayadi. Bu jarayon 3-4 chizig‘i bilan ifodalanadi. So‘ngra izobarik ravishda (4-1 chiziq) sovutilgan jismdan q_2 issiqlik olib ketiladi. Bunda havo isiydi. So‘ngra sikl qaytariladi.

Berilgan qurilma uchun sovutish koeffisienti quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$\varepsilon = \frac{(T_1 - T_4)}{[(T_2 - T_3) - (T_1 - T_4)]}.$$

7.4. Eng past hapopatgacha sovitish

Siqilgan gazlarni ishlab chiqish uchun $-120^{\circ}\text{C}\dots-1700^{\circ}\text{C}$ va yndan past harorat kerak bo`ladi. Texnikada past hararatlarni olish uchun ikkita uslub qo‘llaniladi:

- drossellanish jarayoniga asoslangan uslub (Djoul – Tomson effekti);
- tashqi ish berilishi bilan gazni kengayishi

Birinchi bo`lib eng past haroratgacha sovitish drossellanish yo‘li bilan Lenzi olimi tomonidan kiritilgan. Linze qurilmalarida regenerativ uslub qo‘llangan bo`lib, u drossellanish davomida haroratni uzluksiz kamayishi to siqilgan gazni hosil bo`lishigacha davom etadi.

Linze uslubi bilan bir marotaba drossellanishi natijasida siqilgan havoni hosil qiluvchi yuqori bosimli qurilmaning oddiy chizmasini ko‘rib chiqamiz. Sovitilgan siqilgan havo drossel ventilida drossellanadi, buning natijasida harorat pasayadi va havoning bir qismi suyuqlikka aylanadi, u esa idishda to‘planadi. Suyuqlikka aylanmagan havo issiqlik almashinish apparatiga kiradi, u yerda siqilgan havoni sovitish davomida isiydi. So‘ngra sikl ko‘tariladi.

Ikkinci uslub akademik P.Kapitsa orqali kiritilgan bo`lib, u kichik bosimda turbodetonderni ishlatilishi orqali yuzaga keladi.

Nazorat savollari

1. Sovutish qurilmalari va ularning asosiy xususiyatlarini tavsiflab bering.
2. Sovutish koeffitsienti nimani tavsiflaydi?
3. Havoli va bug` kompression sovutish qurilmalarini ishlash uslubi haqida gapirib bering.
4. Yana ham kichik haroratgacha sovitish qanday amalgam oshiriladi?

8-mavzu


ISSIQLIK NASOSINING SIKLI

Kalit so`zlar: *bug`latgich, sovituvchi modda, issiqlik qabul qiluvchi, isitish, atrof muhit, issiqlik, issiqlikn ni bug`hosil qilish koeffitsienti.*

Issiqlik nasoslari qandaydir obyektni isitish, masalan, xonalarni isitish uchun qo'llaniladi. Sovitgich mashinasiga o'xshab issiqlik nasosi ham teskari Karno sikli bo'yicha ishlaydi. Lekin sovitgich mashinasining asosiy maqsadi qandaydir hajmdan bug`latgich orqali issiqlikn oshishi hisobiga bo'lsa, kondensator esa issiqlikn tashqi muhitga tashlaydi, issiqlik nasoslarida esa aksinchalik teskarisi bo'ladi. Kondensator iste'molchiga issiqlikn ajratuvchi issiqlik almashinuvi apparati hisoblanadi, bug`latgich esa kichik potensialga ega bo'lgan issiqlikn utilizatsiya qiluvchi issiqlik almashinuvi apparati bo'lib hisoblanadi.

Teskari Karno sikli bo'yicha ishlagani uchun kompressorga ishni sarflanishi hisobiga q_2 issiqlikn bug`latgich b dan olib, q_1 issiqlikn harorati yuqori bo'lgan issiqlik qabul qiluvchi – TP ga beradi, bunda $q_1 = q_2 + l$ bo'ladi.

Past haroratli issiqlik manbai bo'lib, issiqlik nasoslarida tashqi muhit hisoblanadi. Masalan, suv havzalaridagi suv bug`latgichni yuvib turadi, bunda sovituvchi moddani bug`latadi.



8.1.-rasm. Issiqlik nasosining chizma tasviri (a) va T-s diagrammasi (b)

Elektr energiyani olinishi uchun sarflangan ishni l_0 deb hisoblanadi. Shunday qilib, issiqlik nasoslarini sikllari bo'lib sovitgich mashinalarining sikllari xizmat qiladi. Sovitgich mashinalari uchun tashqi muhit issiqlik qabul qiluvchi hisoblansa, issiqlik nasosida esa, tashqi muhit yuqori harorarga ega bo'lgan issiqlik manbai hisoblanadi. Ushbu farq **T-S** diagramma (8.1.-rasm)da ko'rsatilgan, bunda **1'2'3'4'1'** - sovitgich qurilmasini sikli; **12341** – issiqlik nasosi sikli. Bunda sovitgich qurilmalarining sikllari atrof muhit harorati (**T_{atr.muh.}**)dan pastda joylashadi.

Issiqlik nasoslarining issiqliknini ishga aylanishida sarflanadigan iqtisodliligi transformatsiya koeffitsenti bilan xarakterlanadi, ψ deb belgilanadi. Bu koeffitsent yuqori haroratli manbara keltirilgan issiqliknini, sarflangan ishga bo'lgan nisbati bilan aniqlanadi.

$$\psi = \frac{q_1}{l_0} = \frac{q_2 - l_0}{l_0} = \varepsilon + 1; \quad (8.1)$$

bunda: q_1 – yuqori haroratli manbara keltirilgan issiqlik;

l_0 – sarflangan ish.

(8.1) ifodadan sovitgich koeffitsenti $\varepsilon=3\div4$ bo'lsa, oddiy elektr orqali isitilishiga qaraganda uch, to,rt marotaba ko'p issiqlik olar ekan.

Issiqlik nasoslari hali ishlab chiqarishda juda ko'p tarqalmagan, buning asosiy sababi uning qimmat turishi, elektr energiyani nisbatan qimmatligidir.

Nazorat savollari

1. Issqlik nasoslari qayerda ishlataladi?
2. Issiqlik nasoslarining ishlash uslubi nimaga asoslanadi?
3. Issiqlik bug` hosil bo`lish koeffitsienti nimani tavsiflaydi?
4. Sovutish mashinalari va issiqlik nasoslari asosiy farqlari nimada?
5. Siklning iqtisodiyigini nima aniqlaydi?

UMUMIY SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Issiqlik mashinalarining qurilmalari necha turga bo'linadi?
2. To'g'ri va teskari sikllari deb nimaga aytildi?
3. To'g'ri siklining termik FIK ifodasini yozib bering.
4. Sovitish koeffitsienti ifodasini yozib bering.
5. Karno siklining p-V va T-s diagrammasini chizib bering.
6. Karno siklini FIK ifodasini yozing.
7. Karno siklining ilmiy va amaliy xususiyati nimada?
8. IYDlari qanday termodinamik sikllari bo'yicha ishlaydi?
9. Nima uchun IYDlarining termik FIK ishchi jismning siqilish darajasiga bog'liq?
 10. Qaysi IYD qulayroq?
 11. To'yingan bug' qanday bug' hisoblanadi?
 12. Suv bug'ining quriganlik darajasi nimani tavsiflaydi?
 13. Suv bug'ini hisoblash uslublarini aytib bering.
 14. p-V va T-s diagrammadagi asosiy chiziqlarni tavsiflab bering.
 15. h-s diagrammani qulayligi nimada?
 16. Bug' turbinada ishni bajarilishi nimaga asoslangan?
 17. Qaysi jarayonlar ichki qaytar va tashqi qaytar jarayonlar deyiladi?
 18. Eksergiya deb nimaga aytildi?
 19. Eksergiyani ifodasini yozib bering.
 20. Eksergetik FIK bilan qanday yo'qolishlar hisobga olinadi?
 21. Issiqlik mashinalarining boshqa mashinalar bilan farqida eksergetik uslubni qulayligi nimada?
 22. Renkin siklining FIKiga boshlang'ich va oxirgi parametrlarni ta'siri qanday?
 23. Renkin siklini FIKi ifodasini aniqlashda h-S diagrammadan olingan qiymatlar qanday ta'sir etadi?
 24. Bug'-kuch qurilmasining regenerativ siklining ahamiyati nimada?
 25. Ikkilamchi qizdirish nimaga ishlatiladi?
 26. Bug'-gaz sikli qanday avzallikka ega?
 27. Sovitgich mashinalari necha turga bo'linadi?
 28. Bug' sovitgich qurilmasini sikli va chizmasini chizib bering.
 29. T-S diagrammada qaysi yuza sovuqlik unumdorligini ifodalaydi?
 30. Sovituvchi moddaga qanday talab qo'yiladi?
 31. Sovituvchi modda deb nimaga aytildi?
 32. Issiqlik nasoslari deb nimaga aytildi? Uning samaradorligi nimada?
 33. Issiqlik nasosining avzalligi nimada?

GLOSARIY

Absolyut harorat -	o‘rtacha kinetik energiyani darajasi.
Adiabatik jarayon -	issiqlik almashinishga ega bo‘lмаган термодинамик jarayon.
Ichki yonuv dvigateli (IYD) -	silindrda yonilg‘ini yonishidagi issiqlikni ishga almashinishi yuzaga kelishi hisobiga ishlaydigan mashinalar.
Izobar jarayon -	bosim o‘zgarmagandagi ($P=const$) термодинамик jarayon.
Korbyurator -	tashqi aralashmani hasil qiladigan IYD qurilmasi.
Issiqlik -	mikrofizik yo‘l bilan beriladigan energiya miqdori darajasi.
Termik FIK -	siklning bajargan ishini keltirilgan issiqlikka nisbati.
Issiqlik bilan ta’minlash -	birgalikda elektr va issiqlik ishlab chiqarish.
Turbina -	bug‘ning issiqlik energiyasini kinetik, so‘ngra mexanik energiyaga aylantiruvchi qurilma.
Karno sikli -	ikkita izoterma va ikkita adiabatadan tashkil topgan sikl.
Eksergiya -	ish bajarish qobiliyati.
Eksergetik FIK -	haqiqiy texnik ishni maksimal texnik ishga nisbati.
Entalpiya -	sistema bosimini uning hajmiga ko‘paytmasi.
Entropiya -	ba’zi bir holat parametrlerini to‘liq differensiali.

MUNDARIJA

1-mavzu	Aylanma termodinamik jarayonlarning asosiy xossalari (issiqlik mashinalarining sikllari)	3
1.1	Termodinamik sikllarning umumiy tavsiflari va klassifikatsiyasi	3
1.2.	Oddiy termodinamik sikl (Karno sikli) va uning xossalari	5
1.2.1.	To‘g‘ri Karno sikli	5
1.2.2.	Umumlashgan (regenerativ) Karno sikli	7
1.2.3.	Teskari Karno sikli	7
1.3.	Aylanma jarayonlarni umumiy xossalari. Ishlash qobiliyati (eksergiya)	8
	Nazorat savollari	9
2-mavzu	Issiqlik-kuch qurilmalari sikllarining tahlili	9
2.1.	Issiqlik-kuch qirilmalarining samaradorligini baholash haqida umumiy ma'lumotlar	9
2.2.	Ichki yonuv dvigatellari	12
2.2.1.	Hajm o‘zgarmaganda ($V=const$) issiqliknari keltirish sikli	15
2.2.2.	Bosim o‘zgarmaganda ($P=const$) issiqliknari keltirish sikli	15
2.2.3.	Aralashgan usulda issiqliknari keltirish sikli	16
	Nazorat savollari	18
3-mavzu	Bug‘-kuch qurilmalarining sikllari	18
3.1.	Bug‘-kuch qurilmalarining asosiy sikllari (Renkin sikli) Nazorat savollari	25
4-mavzu	Bug‘-kuch qurilmalarida issiqlik samaradorligini oshirish usullari	25
4.1.	Regenerativ sikl ..	26
4.2.	Bug‘ni qayta ikkilamchi qizdirish sikli	28
4.3.	Issiqlik bilan ta’minalash sikli	29
4.4.	Bug‘-gaz sikli	31
	Nazorat savollari	32
5-mavzu	Gaz-turbina qurilmalari	33
5.1.	Bosim o‘zgarmaganda issiqlik keltiruvchi GTQning sikli	33
5.2.	Hajm o‘zgarmaganda issiqlik keltiruvchi GTQning sikli	36
5.3.	Gaz turbiba qurilmasining FIKni oshirish usullari	38
	Nazorat savollari	40
6-mavzu	Kompressorlar	40
6.1	Kompressorlarning ishlash uslubi va turlari	40
6.2	Haydash jarayoni tahlili	42
6.3	Porshenli kompressorning indikator diagrammasi	44

	Nazorat savollari.....	46
7-mavzu	Sovitgich qurilmalar va issiqlik nasoslarining sikllarini tahlili	46
7.1	Sovitgich mashinalarining umumiylarining xarakteristikasi.....	46
7.2.	Bug‘ kompression sovitgich mashinalarining sikllari.....	47
7.3.	Havoli sovitish qurilmasining sikli	51
7.4.	Eng past hapopatgacha sovitish Nazorat savollari.....	52
8-mavzu	Issiqlik nasosining sikli	53
	Nazorat savollari.....	54
	Umumiylar va topshiriqlar	55
	Glosariy	56
	Adabiyotlar	57

Muharrir Sidikova K.A.